2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 30 (1629), 2026-yil 13-fevral, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

SUDYALAR DAXLSIZLIGI VA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA ADOLAT TA’MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-fevral kuni Sudyalar oliy kengashi raisining axboroti bilan tanishdi.

Ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida kengash raisi odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar va sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yil yakunlari bo‘yicha axborot taqdim etishi belgilangan.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korrupsiyaga yo‘l qo‘yish — islohotlarga xiyonat hisoblanishi ta’kidlanib, mamlakatimizda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha joriy yilda “favqulodda holat” e’lon qilingan edi.

Shu sababli, sudlar davlat hokimiyatining alohida bo‘g‘ini sifatida “korrupsiyadan xoli” tizimga aylanishida namuna bo‘lishi lozim.

Sud mustaqilligini ta’minlash, sudyalarni tashqi bosimlardan himoya qilish uchun Sudyalar oliy kengashi bevosita mas’ul hisoblanadi. 2025-yilda alohida farmon qabul qilinib, unga yangi vakolatlar berildi. Sud tizimi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida Kengash huzurida Odil sudlov akademiyasi tashkil etildi.

Sudyalar oliy kengashi tomonidan o‘tgan yilda 135 nafar nomzod ilk bor sudyalik lavozimiga, 286 nafar sudya lavozimga qayta tayinlandi, 241 nafardan iborat tergov sudyalari korpusi shakllantirildi.

Hisobot davrida 59 nafar sudyaning vakolatlari muddatidan ilgari tugatildi, jumladan, sudyalik qasamyodini buzganligi hamda Sudyalar odobi kodeksi talablariga rioya etmaganligi uchun 19 nafar sudya lavozimidan ozod etildi, 3 nafar sudya jinoiy javobgarlikka tortildi, 58 nafar sudyaning lavozimlari pasaytirildi. Sudyalik vakolati muddati tugagan 33 nafar sudya navbatdagi sudyalik lavozimiga noloyiq deb topildi hamda 266 nafar sudya intizomiy javobgarlikka tortildi.

O‘tgan yilda sud faoliyatiga aralashganlik holatlari bo‘yicha Bosh prokuraturaga 5 ta taqdimnoma kiritildi. Kengashning rasmiy veb-saytida sudya daxlsizligi buzilganligi yuzasidan tezkor xabar yuborish imkoni yaratildi.

Sudyalar daxlsizligi va mustaqilligini ta’minlash doirasida hududiy sudlar raislari tomonidan chiqarilgan 6 mingdan ortiq buyruqlar o‘rganilib, 231 ta buyruqda 314 nafar sudyalarga nisbatan odil sudlov bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalar yuklatilganligi aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar ko‘rilgan.

Shu bois, sudyani o‘ziga xos bo‘lmagan vazifalardan ozod etish maqsadida sud apparati xodimlari bilan ishlash, moddiy-texnik ta’minot va barcha tashkiliy ishlarga mas’ul bo‘ladigan “sud ma’murchiligi” institutini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba o‘rganiladi.

Sudyalar mustaqilligi va daxlsizligini ta’minlash borasida Sudyalar intizomiy hay’atini tashkil etish orqali sudyaga nisbatan intizomiy jazo qo‘llashning xolis tartibini yaratish taklif qilindi.

Sudya va ularning oila a’zolari mol-mulkini deklaratsiya qilishni yo‘lga qo‘yish, sud apparati xodimlari orasida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan komplayens nazorat tizimini joriy etish, sud apparati xodimlarini ishga olishning ochiq tartibini yaratish kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati doirasida sud tizimida ham gender tenglikni ta’minlash masalasi muhokama qilindi. Jumladan, yaqinlashib kelayotgan 10-mart — Xalqaro ayol sudyalar kunini nishonlash bo‘yicha rejalar belgilab olindi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni qo‘llab-quvvatlab, sud hokimiyati mustaqilligi, sudyalar daxlsizligini ta’minlash, odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish yo‘nalishidagi tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish yuzasidan bir qator tavsiyalar berdi.

O‘zA

KREATIV IQTISODIYOT HAM MADANIY, HAM IQTISODIY JIHATDAN STRATEGIK MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyat muassasalari infratuzilmasini yaxshilash hamda yangi kreativ maydonlarni tashkil etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot ko‘plab davlatlarda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon yalpi ichki mahsulotining 3-7 foizi ushbu soha hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda 2024-yilda kreativ iqtisodiyotning YIMdagi ulushi 3,7 foizni yoki 56,8 trillion so‘mni tashkil etgan, eksport hajmi esa 770,6 million dollarga yetgan, sohada 319 ming nafardan ortiq aholi band.

Aholining 60 foizdan ortig‘i yoshlar ekani, raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanayotgani hamda madaniy merosimiz boyligi ushbu sohada “katta sakrash” qilish uchun mustahkam zamin yaratayotgani ta’kidlandi.

Shu maqsadda 2024-yilda kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida alohida qonun qabul qilinib, sohaning huquqiy asosi yaratilgan edi. Kreativ industriya parki ta’sis etilib, uning rezidentlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etildi. Jumladan, daromad solig‘i va ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Sohadagi tadbirkorlarga bir qator boshqa imtiyozlar ham berildi.

Mana shu chora-tadbirlar hisobiga 2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotning YIMdagi ulushini 5 foizga yoki 145 trillion so‘mga yetkazish, eksportni 1 milliard dollarga olib chiqish, sohadagi band aholini 500 ming nafardan oshirish maqsad qilingan.

Taqdimotda Toshkent shahrida joylashadigan Kreativ industriya parkining konsepsiyasi ko‘rib chiqildi. Unda yashil bog‘, art-obyektlar, xalqaro dasturlash tarmog‘ining Toshkent maktabi, kitob kafesi, sport maydonlari, ijodiy pavilyonlar, kovorking markazi va ofislar, kino va video ishlab chiqarish maydonlari, ovoz yozish studiyasi, kreativ industriya kampusi hamda yoshlar va ijodkorlar uchun mehmonxona barpo etiladi. Loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Yangi Toshkent hududi va Nukus shahrida kreativ parklar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Yangi Toshkentda kreativ park rezidentlari uchun ijara maydonlari, studiyalar, media va anjuman zallari, tijorat va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashtirilsa, Nukus shahrining Istiqlol bog‘idagi mavjud pavilyon rekonstruksiya qilinib, ko‘p funksiyali jamoat-madaniyat markaziga aylantiriladi.

Nukusdagi kreativ park loyihasining e’tiborli jihati shundaki, unda O‘zbekistonning “EKSPO-2025”dagi milliy pavilyoni joylashtiriladi va yonida zamonaviy kutubxona barpo etiladi.

Davomi 2-betda

TEXNIK TARTIBGA SOLISH SOHASI XALQARO TALABLAR ASOSIDA TUBDAN YANGILANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev texnik tartibga solish sohasini xalqaro talablar asosida tubdan yangilash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, so‘nggi to‘rt yilda milliy standartlarning yarmi xalqaro talablarga to‘liq uyg‘unlashtirildi. Mamlakatimiz akkreditatsiya tizimi 185 ta davlat orasida 29-o‘rinni egalladi. Milliy laboratoriyalar natijalari Germaniya, Koreya va Yaponiya kabi 37 ta davlat tomonidan tan olina boshladi.

Shu bilan birga, xavf darajasi yuqori bo‘lgan 156 ta tovar pozitsiyasini majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bekor qilindi. Majburiy sertifikatdan o‘tadigan tovarlar pozitsiyasi 27 foizga qisqardi.

Bu tufayli sohada adolatli raqobat muhiti shakllangani, ortiqcha ovoragarchilik kamayganini tadbirkorlarning o‘zi ham tan olmoqda.

Shu bilan birga, sohada hali yechimini kutayotgan masalalar ko‘pligi ta’kidlandi. Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida birinchi navbatda texnik tartibga solish tizimi to‘liq xalqaro talablarga mos bo‘lishi shartligi qayd etildi.

Avvalo, mahsulotni baholashda korxona faoliyatini tekshirish amaliyoti tadbirkorlar noroziligiga sabab bo‘layotgani ko‘rsatib o‘tildi. Amaldagi tartibga ko‘ra, talabga javob bermaydigan mahsulot aniqlanganda, uning aylanmasi emas, uni ishlab chiqargan tadbirkorning faoliyati cheklanmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasida xavf-tahlilga asoslangan bozor nazorati tizimi amal qiladi. Bunda ishlab chiqaruvchi mahsulot muvofiqligini deklaratsiyalash orqali barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi, sifat va xavfsizlikni kafolatlaydi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda davlat nazoratidan bosqichma-bosqich voz kechilib, bozor nazorati tamoyillariga o‘tiladi. Buning uchun “Bozor nazorati to‘g‘risida” alohida qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Eskirgan standartlar va samarasiz texnik reglamentlardan voz kechish va to‘liq xalqaro standartlarga o‘tish zarurligi qayd etildi. Hozirda 33 mingdan ortiq standart mavjud bo‘lib, ularning 50 foizi eskirgan yoki xalqaro talablarga mos emas.

Shu bois, 6 ta texnik reglament bekor qilinadi, 29 tasi qayta ko‘rib chiqiladi. Joriy yilda 4 ming 460 ta, kelgusi yilda 2,5 mingdan ziyod, 2028-yilda esa 817 ta xalqaro standartni qabul qilish maqsad qilingan.

2026-yil 1-iyuldan to‘qimachilik, charm, mebel, elektrotexnika, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, 2027-yildan boshlab neft-gaz, metallurgiya, transport, qurilish mahsulotlari, tibbiy buyumlar, 2028-yildan boshlab esa energetika, kimyo, ekologiya va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni to‘liq xalqaro standartlar asosida tashkil etish rejalari ma’lum qilindi.

Davomi 2-betda

ANDIJON VILOYATIDAGI ISLOHOTLAR AHOLI HAYOTIDA ANIQ VA SEZILARLI NATIJA BERISHIGA ERISHILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va 2026-yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilish avvalida qayd etilganidek, Andijon — aholisi eng zich joylashgan hudud. Viloyatda 3,5 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi, har yili 80 mingga yaqin tug‘ilish qayd etilmoqda.

Yer resurslari cheklangan sharoitda har bir gektar yer, har bir loyiha hamda har bir investitsiya yuqori qo‘shilgan qiymat va barqaror ish o‘rni yaratishi shartligi ta’kidlandi. Bu viloyat rahbariyati oldidagi eng asosiy vazifa ekani ko‘rsatib o‘tildi.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, yalpi hududiy mahsulot 107,7 trillion so‘mni tashkil etib, 6,8 foizga oshdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 7,2 foiz, xizmatlar hajmida 15,1 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘sish qayd etildi.

Joriy yilda iqtisodiyot va sanoatni 8 foizga, xizmatlarni 16,3 foizga, qishloq xo‘jaligini 5,9 foizga oshirish maqsad qilingan. Xorijiy investitsiyalarni 2025-yildagi 2,5 milliard dollardan 2026-yilda 3,5 milliard dollarga, eksportni 1,3 milliard dollardan 1,5 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

2025-yilda 383 ming aholining bandligi ta’minlangan bo‘lsa, 2026-yilda 489,5 ming aholining bandligini ta’minlash, ishsizlikni 3,6 foizga, kambag‘allikni 2,4 foizga tushirish muhimligi ta’kidlandi.

Asaka, Oltinko‘l, Xo‘jaobod, Shahrixon tumanlari hamda Andijon shahrini ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish vazifasi qo‘yildi. “Og‘ir” toifadagi Bo‘ston, Paxtaobod va Ulug‘nor tumanlarida kambag‘allikni kamida ikki barobar qisqartirish belgilandi.

Joriy yilda viloyatda 798 million dollarlik loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgani ta’kidlandi.

Jumladan, Asaka, Buloqboshi va Shahrixon tumanlarida charm-poyabzal, qurilish materiallari hamda dastgohlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 3 ta mikrosanoat markazi tashkil etiladi. 110 ta qishloq hamda 26 ta chegaraoldi va olis mahallalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kichik sovitkichli omborlar tashkil qilish va mikrosanoat loyihalari amalga oshiriladi.

Andijon tumanidagi “Ipak yo‘li” erkin iqtisodiy zonasida 100 gektardan ortiq yer maydoni bo‘sh turibdi. Yer resurslari cheklangan sharoitda tayyor infratuzilmasi bor maydonlarda yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarni joylashtirish, minglab ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatidan to‘liq foydalanish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Viloyatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Davomi 2-betda

Islohot odimlari

BIR OYDA 103,5 MILLIARD SO‘M

DAVLAT IJTIMOIY SUG‘URTASI TIZIMINING DASTLABKI NATIJALARI

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili 29-oktabrda ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishgandi. Taqdimotda milliy ijtimoiy sug‘urta tizimini xalqaro hujjatlarga uyg‘unlashtirish taklifi ham ko‘rib chiqilgan, unga ko‘ra, endi rasman ish bilan band bo‘lgan barcha shaxsga nafaqa bosqichma-bosqich Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan to‘lanishi aytilgandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonuni bilan esa davlat ijtimoiy sug‘urtasining yangi tizimi bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi. Aholini ijtimoiy himoyaga kengroq qamrab olish nafaqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlov, balki kambag‘allikning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizm sifatida ham muhim.

Davomi 5-betda

HAR BIR IMKONIYAT VA IJTIMOIY QADAM — XALQQA QAYISHADIGAN ISH

Bugun dunyo yangi iqtisodiy va ma’naviy bosqichga qadam qo‘yayotgan bir paytda davlatlar oldida bitta, ammo o‘ta murakkab savol turibdi: iqtisodiy o‘sish kim uchun va qanday natija bermoqda? Chunki zamonaviy taraqqiyot endi faqat yalpi raqamlar, investitsiya hajmi yoki eksport ko‘rsatkichlarigina emas, balki inson hayotidagi haqiqiy o‘zgarishlar bilan baholanmoqda. Qaysi mamlakatda oddiy inson o‘z mehnati orqali qadr topsa, kelajakka ishonchi mustahkamlansa, o‘sha jamiyat barqaror hisoblanadi.

Geosiyosiy keskinliklar va iqtisodiy raqobat kuchaygan sharoitda davlat qudratining haqiqiy mezoni aniq namoyon bo‘lmoqda: u jamiyatning eng zaif qatlami hayotida qay darajada sezilarli o‘zgarish yarata olmoqda? Zero, boy davlat degani boy insonlar jamiyati emas, balki imkoniyatlar adolatli taqsimlangan, mehnat orqali farovonlikka erishish mumkin bo‘lgan jamiyatdir. Shu ma’noda, iqtisod maqsad emas, inson uchun xizmat qiladigan vositaga aylanmog‘i shart.

Raqamlar ortidagi inson taqdiri

Globallashuv davrida iqtisodiy raqobat, texnologiyalar va moliyaviy resurslar uchun kurash bir tomonda bo‘lsa, ikkinchi tomonda dunyo aholisining bir qismi hanuz faqat asosiy ehtiyojlar uchun kurashib yashashga majbur. Bu qarama-qarshilik nafaqat moddiy, balki ma’naviy hamdir. Shuning uchun har bir davlat uchun iqtisodiy o‘sishning asosiy mezoni inson hayotidagi o‘zgarishlar va aholi uchun yaratilgan barqaror imkoniyatlardir.

Davomi 3-betda

Qurilish va bunyodkorlik ishlari mutlaqo yangi yondashuv asosida olib borilyapti. Ko‘p qavatli uy-joylar master-rejalar asosida, mahalliy qurilish materiallari, jumladan, bazalt va sementdan foydalangan holda qisqa muddatlarda barpo etilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 13-fevral, 30-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

KREATIV IQTISODIYOT HAM MADANIY, HAM IQTISODIY JIHATDAN STRATEGIK MUHIM

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizdagi madaniyat markazlari faoliyati tanqidiy tahlil qilindi.

Respublikadagi 800 dan ortiq madaniyat markazining yarmidan ko‘pi ta’mirtalab holatda ekani qayd etildi. Aksariyat madaniyat markazlari haligacha eskicha ishlayotgani, asosan bayram tadbirlarini o‘tkazish bilan cheklanib qolgani ko‘rsatib o‘tildi.

Shu bois, madaniyat markazlarini zamonaviy andoza asosida rivojlantirish bo‘yicha pilot loyiha ishlab chiqilgan. Loyiha Toshkent, Qo‘qon, Buxoro va Samarqanddagi 4 ta markazni qamrab olgan bo‘lib, birinchisi Toshkent shahridagi “Gulshan” madaniyat markazi negizida tashkil etilmoqda. Unda “madaniyat — ta’lim — hordiq — muloqot” zanjiri asosida turli yo‘nalishlardagi klublar, ustaxonalar, studiyalar va to‘garaklar tashkil etiladi.

Taqdimotda Buyuk Britaniya Qirollik jamg‘armasi maktabi tajribasi asosida Toshkent shahrida An’anaviy san’at oliy maktabini tashkil etish rejalari ham ko‘rib chiqildi.

Ushbu oliy maktab kulolchilik va g‘isht terish, manzarali bezak, yog‘och o‘ymakorligi, arxitekturaviy xattotlik, geometrik va biomorf naqsh yo‘nalishlarida bakalavriat va magistratura dasturlarini amalga oshiradi. Ta’lim ingliz tilida olib boriladi, ikki yillik dastur asosida mutaxassislar tayyorlanadi. 2027-yilda 50 nafar mutaxassis tayyorlash, 2031-yilga kelib, yiliga 80 nafar kadr quvvatiga chiqish rejalashtirilgan.

Shuningdek, taqdimotda Milliy restavratsiya institutini tashkil qilish, Samarqand shahridagi Bibixonim masjidini restavratsiya qilish, “Turkiston” yozgi amfiteatrini ta’mirlash loyihalari ko‘rib chiqildi. Loyihalashtirish va restavratsiya ishlarini UNESCO bilan to‘liq kelishilgan holda bajarish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat madaniy, balki iqtisodiy jihatdan strategik muhim ekanini ta’kidlab, belgilangan loyihalarning ijrosini sifatli ta’minlashga ko‘rsatma berdi.

O‘zA

TEXNIK TARTIBGA SOLISH SOHASI XALQARO TALABLAR ASOSIDA TUBDAN YANGILANADI

Boshlanishi 1-betda

Sertifikatsiya jarayonini yanada soddalashtirish zarurligi qayd etildi. Hozirgi murakkab tizim tannarx asossiz oshishiga, byurokratiya va korrupsiyaga sharoit yaratayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Xavf-tahlil asosida baholash tizimi joriy etilib, qolgan tovar pozitsiyalari bo‘yicha ham majburiy sertifikatlashni bekor qilish va bosqichma-bosqich deklaratsiyalashga o‘tkazish taklif qilindi.

Umuman, “Mahsulotning umumiy xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini qabul qilish maqsadga muvofiq ekani ta’kidlandi.

Sohada institutsional o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Texnik tartibga solish agentligi tarkibidagi tashkilotlar — “O‘ztest” markazini tugatish va Akkreditatsiya markazini Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazish orqali 5 tadan 3 taga qisqartirilishi belgilandi.

Sinov va sertifikatlash xizmatlarini to‘liq xususiy sektorga berish taklif qilindi. Ayni paytda xususiy sektorda barcha sohalarni qamrab olgan 207 ta sinov laboratoriyasi va 73 ta sertifikatlash idorasi faoliyat yuritmoqda. Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida Angliyaning “Intertek”, Shveysariyaning “SGS”, Fransiyaning “Bureau Veritas”, Germaniyaning “TÜV” kabi yetakchi xalqaro kompaniyalari jalb qilinadi.

Taqdimotda “SUz” milliy muvofiqlik belgisini joriy etish, akkreditatsiya organining mustaqilligini ta’minlash, sinov laboratoriyalari faoliyatini raqamlashtirish, metrologiya tizimini isloh qilish hamda etalon bazasini kengaytirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan taklif va tashabbuslar yuzasidan tadbirkorlarning fikr-mulohazalarini tingladi hamda yangi tizimni joriy qilish bo‘yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘zA

DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI MIRAKBAR HOJIAKBAROVICH RAHMONQULOV

Taniqli davlat va jamoat arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi, yuridik fanlar doktori, professor Mirakbar Hojiakbarovich Rahmonqulov shu yil 11-fevral kuni 74 yoshida vafot etdi.

Mirakbar Rahmonqulov 1952-yil 5-oktabrda Toshkent shahrida tug‘ildi. 1975-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ni huquqshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tamomlab, Davlat reja qo‘mitasi huzuridagi iqtisodiyot ilmiy-tekshirish institutida kichik ilmiy xodim sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Keyinchalik O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy qo‘mitasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumida turli lavozimlarda xizmat qildi.

1992-1994-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining birinchi prorektori vazifasida ishlab, tashqi siyosat sohasida zamonaviy bilimga ega malakali kadrlarni tayyorlash ishlariga katta hissa qo‘shdi.

Mirakbar Rahmonqulov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti direktori o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritib, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muhim strategik tadqiqotlarga rahbarlik qildi.

Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid davlat dasturlari, konseptual hujjatlar va qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etdi.

Ayni vaqtda salohiyatli olim sifatida mintaqaviy xavfsizlik masalalari, xorijiy davlatlar bilan ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan qator monografiya va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar yaratdi.

Tajribali siyosatchi, faol va tashabbuskor davlat xizmatchisi sifatida M.Rahmonqulov ko‘p yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik Kengashining kotibi vazifalarida xizmat qildi. 2022-yildan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida mas’ul vazifalarda ishlab, o‘zining boy tajribasi, chuqur bilim va salohiyati, fidoyilik va vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etdi.

So‘nggi yillarda u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutiga rahbarlik qilish bilan birga Oliy Majlis Senatining a’zosi sifatida ham samarali faoliyat olib bordi.

Mirakbar Rahmonqulovning davlatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun” va II darajali “Shon-sharaf” ordenlari bilan mukofotlangan edi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yirik huquqshunos olim, yoshlarning mehribon ustozi, samimiy va kamtarin inson Mirakbar Rahmonqulovning xotirasi qalblarimizda doimo saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, SH. AYUPOV

ANDIJON VILOYATIDAGI ISLOHOTLAR AHOLI HAYOTIDA ANIQ VA SEZILARLI NATIJA BERISHIGA ERISHILADI

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda paxtachilikda hosildorlikni oshirish maqsadida xorijiy navlar joylashtiriladigan va ilg‘or “76x10” sxemasi asosida ekiladigan paxta maydonlarini kengaytirish, 472 dona yangi texnika xarid qilish rejalashtirilgan. 2 ming gektar kam samarali eski bog‘lar intensiv bog‘larga aylantiriladi, 6,8 ming gektar yer foydalanishga qayta kiritiladi.

Yangi tajriba sifatida Oltinko‘lda gulchilik, Izboskanda ko‘chatchilik, Asakada issiqxonachilik, Qo‘rg‘ontepada sabzavotchilik, Buloqboshida uzumchilik bo‘yicha tomorqa maktablari tashkil etiladi.

2025-yilda viloyatga 460 ming xorijiy va 1,8 million mahalliy turist kelgan. Joriy yilda xorijiy turistlar sonini 700 mingga, mahalliy sayyohlarni esa 2,5 millionga yetkazish maqsad qilingan.

Shu maqsadda Buloqboshidagi “Shirmonbuloq”, Xo‘jaboddagi “Imom ota” va Xonoboddagi turizm markazlarini rivojlantirish uchun alohida direksiya ochiladi. Tuman va shahar markazlaridagi 91 ta mahallani bog‘lovchi gavjum ko‘chalarda savdo, dam olish va ko‘ngilochar maskanlar barpo etiladi.

Andijonda uy-joy masalasi boshqa hududlarga nisbatan ancha dolzarb. Joriy yilda viloyatdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 54 ta, boshqa hududlarda esa 158 ta ko‘p qavatli uylar qurilishi kutilmoqda.

“Qurilishga tayyor yer” tizimini joriy etish orqali loyihalarni boshlash muddatini 120 kundan 30 kungacha qisqartirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Jalaquduqda ushbu yangi tizim asosida zamonaviy uy-joylar qurish bo‘yicha tajriba boshlanadi.

Viloyatda 11 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, 94 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda, 56 ta texnikumda 46 ming nafar o‘quvchi kasblarga o‘rgatilmoqda. Oliygohlardagi ilmiy salohiyatni oshirish, dual ta’lim qamrovini kengaytirish choralari belgilab olindi.

Tibbiyot texnikumlariga til o‘rgatish bo‘yicha ilg‘or xususiy ta’lim tashkilotlarini jalb qilib, yiliga 4 mingdan ziyod yoshlarning Yevropa davlatlarida ishga joylashishiga ko‘maklashish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ijtimoiy reyestrga kirmagan oilalarning iqtidorli farzandlariga ham sport, madaniyat va san’at sohasidagi tashabbuslari uchun “Yoshlar daftari” jamg‘armasidan 41 million so‘mgacha subsidiya berish taklif qilindi. Prezidentimiz ushbu tartibni Andijon viloyatidan boshlashni topshirdi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilish yakunida belgilangan vazifalar ijrosi Andijon aholisi hayotida aniq va sezilarli natija berishi shartligini ta’kidlab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘zA

ODDIY ODAMLAR O‘ZGARISHLAR NAFASINI HIS QILMOQDA

Bunyodkorlik barcha davrlarda jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, tamaddun rivojining bosh omili sifatida namoyon bo‘lib kelgan. U xalq farovonligini ta’minlash, iqtisodiy salohiyatni oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham eng muhim vositalardan biri. Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli qurilish va bunyodkorlik ishlari ham ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu jarayon aholi soni o‘sishi, jadal urbanizatsiya, sanoat va infratuzilmaning izchil rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda kechayotir.

Taraqqiyot manzillari

Qurilish va bunyodkorlik binolar barpo etish bilan cheklanib qolmay, hududlarning iqtisodiy qiyofasini yangilash, aholi turmush darajasini oshirish, kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan yaxlit jarayonni anglatadi. Ayniqsa, istiqbolli rejalar asosidagi loyihalar hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Keng qamrovdagi qurilish va obodonlashtirish natijasida Jizzax shahri va viloyatining qiyofasi tobora yangilanyapti. Zamonaviy turar joy majmualari, ko‘chalar, qulay va xavfsiz ko‘priklar barpo etilishi aholi uchun munosib yashash muhitini shakllantirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, hudud aholisining kundalik hayotini yaxshilash, vaqt va resurslarni tejash, umuman olganda, farovon turmushni ta’minlash yo‘lidagi eng muhim tashabbuslardan biri bo‘layotir.

— O‘tgan 2025-yilda Jizzaxda qurilish va uy-joy sohasida salmoqli natijalarga erishildi, — deydi viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i Bobur Mamatov. — Shu davrda

51 ta ko‘p qavatli uy-joy foydalanishga qabul qilindi. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 13 ta zamonaviy uy-joy o‘z egalariga topshirildi.

2025-yilda davlat dasturlari doirasida viloyatda 98 ta ijtimoiy soha obyekti, xususan, 10 ta tibbiyot muassasasi, 14 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 67 ta maktab, 4 ta oliy ta’lim muassasasi, 2 ta sport inshooti va madaniyat sohasiga tegishli 1 ta obyektda juda keng ko‘lamda qurilish va ta’mirlash ishlari bajarildi.

Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. 112 kilometr ichimlik suv va 66,1 kilometr oqova suv tarmog‘i tortildi. 22,8 kilometr yuqori kuchlanishli va 622 kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari qurilishi to‘liq yakunlandi.

Viloyatning har bir hududida ijtimoiy soha obyektlari, turar joy, savdo va xizmat ko‘rsatish binolarini barpo etishda hududlar rivojlanishidagi muhim yo‘nalishlarni inobatga olgan holda bosh rejalar ishlab chiqilgan. Unda sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalari, aholi maskanlari, yo‘llar va infratuzilma tarmoqlarini rejali joylashtirish ko‘zda tutilgan.

Urbanizatsiya agentligi, viloyat hokimligi hamda Yevropa davlatlaridan jalb etilgan mutaxassislar ishtirokida Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumanini yagona aglomeratsiya asosida rivojlantirish bo‘yicha master-reja ishlab chiqildi. Uning doirasida Jizzax shahri bilan Sharof Rashidov tumani o‘rtasidagi 40 gektar yer maydoni tanlab olinib, bu hududda ko‘p qavatli 50 ta uy-joy qurilishi boshlandi. Albatta, ular qatorida maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumta’lim maktabi va tibbiyot muassasalari ham barpo etiladi.

> **Jizzax viloyatidagi qurilish va bunyodkorlik ishlari nafaqat viloyat markazida, balki tumanlarda ham avj olgan. Buning yaqqol misoli — Do‘stlik tumanidagi Chinobod mahallasidagi “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi. Bugun bu loyiha keng jamoatchilik e’tiborini tortib, shaharsozlik va uy-joy qurilish sohasidagi izchil islohotlarning amaldagi samarasi sifatida aholi turmushiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.**

Ayni paytda qurilganiga 50 yildan oshgan uy-joylarni yangilash ham ustuvor vazifalardan biri. Renovatsiya dasturi asosida 1 ming 783 ta ko‘p qavatli uy ta’mirlandi. Ularning 1,1 million kvadrat metr qismi bazalt bilan qoplandi. Natijada yiliga 37,4 million kilovatt elektr energiyasi iqtisod qilinib, umumiy hisobda 30 foizgacha energiya resurslari tejalishiga erishildi. Bu esa qariyb 36,5 milliard so‘mni tejab qolish imkonini bermoqda. Eng muhimi, mazkur uylarda istiqomat qiluvchi aholining yashash sharoiti ancha yaxshilandi.

Joriy yilda ham ushbu ishlar izchil davom ettiriladi. Xususan, viloyat bo‘yicha 123 ta ko‘p qavatli uy-joy qurilishi rejalashtirilgan va shu orqali 17,5 ming aholi turar joy bilan ta’minlanadi. Shuningdek, 462 kilometr avtomobil yo‘li ta’mirlanib, 12 ta ko‘prik rekonstruksiya qilinishi mo‘ljallangan.

Qurilish va bunyodkorlik ishlari mutlaqo yangi yondashuv asosida olib borilyapti. Ko‘p qavatli uy-joylar master-rejalar asosida, mahalliy qurilish materiallari, jumladan, bazalt va sementdan foydalangan holda qisqa muddatlarda barpo etilmoqda.

— Ilgari qish faslida ancha qiynalardik, — deydi Jizzax shahridagi ko‘p qavatli uylardan birida istiqomat qiluvchi Feruza Qobilova. — Uyimiz ancha eski — 1974-yilda qurilgan. Sovuq kunlarda uni isitish juda mushkul, yozda esa haddan ziyod qizib ketardi. Renovatsiya dasturi doirasida uyimiz bazalt qoplamasi bilan qoplanganidan keyin vaziyat tubdan o‘zgardi. Hozir qishda xonadon ancha iliq, yozda esa salqin. Energiya sarfi sezilarli darajada kamaydi, gaz va elektr uchun to‘lovlar ham ancha qisqardi. Eng quvonarlisi, uyimiz nafaqat yashash uchun qulay, tashqi ko‘rinishi ham ancha chiroyli va zamonaviy tus oldi. Ilgari eskirgan binolar endi mahallaning ko‘rkiga aylangan.

Xalq roziligi va bunyodkorlik yo‘nalishidagi islohotlarning hayotiy ahamiyatini yangi uyga ko‘chib o‘tgan fuqarolarning kayfiyati va munosabati ham yaqqol namoyon etadi.

— Bugun aholini uy-joy bilan ta’minlash borasidagi keng ko‘lamli islohotlarning amaliy natijasini o‘z hayotimda his qilyapman, — deydi G‘ayrat Sharipov. — Ko‘p yillar davomida oilam bilan ijara uylarda yashab keldik. Bu oson emas, oyma-oy to‘lov, turar joyning noqulayligi, ertangi kunga ishonchning to‘liq bo‘lmasligi insonni qiynaydi. Shu bois, o‘z uyim bo‘lishi katta orzum edi. Davlat tomonidan kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, uy-joy xaridi uchun subsidiyalar ajratilayotgani haqida eshitib, hujjat topshirdik. Ochig‘i, bunday imkoniyatga ega bo‘lishga unchalik ishonmaganman. Ammo adolatli va shaffof tizim asosida arizam ma’qullanib, o‘tgan yili “Yangi O‘zbekiston” massividan zamonaviy, shinam uy sohibi bo‘ldim. Keyin hayotimiz tubdan o‘zgardi. Bolalarim tinch va xavfsiz muhitda o‘smoqda, qo‘shnilar bilan ahil munosabat, infratuzilma, maktab va bog‘chalar yaqinligi kundalik turmushimizni ancha yengillashtirdi. Ertangi kunga ishonch kuchaydi.

Jizzax viloyatidagi qurilish va bunyodkorlik ishlari nafaqat viloyat markazida, balki tumanlarda ham avj olgan. Buning yaqqol misoli — Do‘stlik tumanidagi Chinobod mahallasidagi “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi. Bugun bu loyiha keng jamoatchilik e’tiborini tortib, shaharsozlik va uy-joy qurilish sohasidagi izchil islohotlarning amaldagi samarasi sifatida aholi turmushiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Loyiha doirasida jami 50 ta besh qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Shu kunga qadar 15 tasi foydalanishga topshirildi. Qolgan uylar esa bosqichma-bosqich, reja asosida barpo etilayotir.

— Sakkiz yil ijarada yashaganimizdan keyin mana shunday shinam uy egasiga aylandik, — deydi ushbu mavzeda yashovchi Yulduz Muhammedova. — Uyimiz boshlang‘ich badalining bir qismi davlat tomonidan subsidiya asosida to‘landi. Yangi uylarimiz ancha keng va qulay, bolalarimiz uchun maydoncha ham bor. Gaz va elektr ta’minoti uzluksiz. Uylarimiz devori energiya tejamkor mahsulotlar bilan qoplangani uchun kommunal to‘lovlar xarajatlari ancha qisqargan. O‘zim ham, turmush o‘rtog‘im ham o‘qituvchi. Yurtimizda shunday ezgu ishlar avj olayotganidan mamnunman.

O‘tgan yili viloyatda keng ko‘lamda ko‘p qavatli uy-joy, ijtimoiy soha obyektlari va yo‘llar qurilishi bilan birga aholi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan transport infratuzilmasi ham salmoqli darajada rivojlantirildi. Yangi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, piyodalar uchun yer osti va piyoda o‘tish yo‘llari barpo etildi, bu esa shahar va qishloqlar orasidagi harakatni sezilarli darajada yengillashtirdi.

Xususan, Jizzax shahrini xalqaro ahamiyatga ega M-39 avtomagistrali bilan bog‘lovchi yangi yo‘l va yo‘l o‘tkazgichlar aholi uchun katta qulaylik yaratdi. Endi avtomobillar qatnovi tez va xavfsiz amalga oshiriladi, yo‘l harakati bilan bog‘liq to‘siqlar sezilarli darajada kamaydi. Bu nafaqat transportdagi vaqtni tejashga yordam berdi, balki mahallalar va yangi turar joy massivlari bilan shahar markazini bog‘lash, savdo va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim omil bo‘ldi.

— Jizzax shahrini M-39 magistrali bilan bog‘lovchi to‘rt tasmali, ikkita tunnel, bitta yo‘l o‘tkazgich va bitta ko‘prikdan iborat to‘rt kilometr avtomobil yo‘li foydalanishga topshirildi, — deydi Jizzax shahri hokimi Komil Xolmurodov. — Bu ko‘prik va yo‘l Jizzax aholisining ko‘p yillik orzusi edi, desam xato qilmayman. U nafaqat shahar transporti oqimini yengillashtirdi, balki yaqin kelajakda zamonaviy turar joy binolari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etilishi uchun ham muhim asos yaratdi. Yo‘l atrofida yashil maydonlar tashkil etilishi rejalashtirilmoqda, bu esa shahar muhitini yanada obod va zamonaviy qiladi. Demak, kuchli transport infratuzilmasi ortidan aholi uchun qulaylik va farovonlik ta’minlanadi.

Mazkur yo‘l shaharning kengayishida ham asosiy vazifani bajaradi. Yaqin kelajakda “Yangi O‘zbekiston” massivi bilan bog‘lanadigan yangi qo‘shimcha maskan quriladi. Bu esa nafaqat shaharning geografik chegaralarini kengaytirish, balki infratuzilmasini rivojlantirish va aholi uchun zamonaviy turmush muhitini yaratishda muhim qadam hisoblanadi.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Har bir imkoniyat, har bir dastur va har bir investitsiya nafaqat iqtisodiy qadam, balki inson qadriyati va uning hayotini yaxshilashga qaratilgan ma’naviy harakat sanaladi. Davlat va xalq o‘rtasidagi bu ishonch va hamjihatlik zamonaviy O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim ustuvorlikdir.

Sharh

HAR BIR IMKONIYAT VA IJTIMOIY QADAM – XALQQA QAYISHADIGAN ISH

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ana shunday global jarayonlar fonida 23-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Bu yig‘ilish mazmun-mohiyatiga ko‘ra faqat iqtisodiy hisob-kitoblar muhokamasi emas, balki odamlar hayotiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim ijtimoiy voqea sifatida ahamiyat kasb etdi.

Davlatimiz rahbari 2025-yil yakunlariga to‘xtalar ekan, iqtisodiyotda erishilgan natijalarni shunchaki raqamlar bilan emas, balki ularning jamiyat hayotidagi o‘rni bilan bog‘lab tahlil qildi. Iqtisodiyotning 7,7 foiz o‘sishi va yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard dollardan oshgani, avvalo, mehnat bozoridagi faollik, ish o‘rinlari va aholi daromadlari ko‘payishi demakdir.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o‘sish sur’atlari 2024-yildagiga nisbatan yuqori bo‘lgani, xorijiy investitsiya hajmi 43 milliard dollarga, eksport 33,8 milliard dollarga yetgani O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va raqobatbardoshligi oshib borayotganini ko‘rsatadi. Bu raqamlar shunchaki statistika emas, balki mamlakatning tashqi bozorlarda o‘z o‘rnini topayotgani, ichki imkoniyatlar esa tashqi ishonch bilan uyg‘unlashayotganining yaqqol dalilidir.

Ayni paytda yuqori iqtisodiy faollik sharoitida inflyatsiya darajasi 9,8 foizdan 7,3 foizga tushishi aholi daromadlarining haqiqiy qiymatini saqlab qolishda muhim omil bo‘ldi. Bu holat iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan ham barqaror ekanini anglatadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqtisodiyot qanchalik barqaror bo‘lsa, infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy sohalarga sarmoya yo‘naltirish va aholi turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari shunchalik kengayadi. Mustahkam poydevorsiz bino bo‘lmagani kabi barqaror iqtisodiyotsiz farovon hayot ham bo‘lmaydi.

Mamlakatdagi islohotlar nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham qaratilgan. 2025-yilda 366 ming oila kambag‘allikdan chiqqani, kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 5,5 foizdan 4,8 foizga tushgani bu raqamlar ortida minglab oilalar hayotidagi real o‘zgarishlar, bolalarning ta’limga, kattalarning esa mehnat orqali o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan umidi mujassam.

Kambag‘allikni qisqartirish siyosati iqtisodiy samaradorlikdan ham kengroq ma’no kasb etadi. Bu inson qadrini tiklash, mehnati va salohiyatini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e’tirof etishdir. Chunki inson faqat kun kechirish emas, balki o‘z iqtidori orqali hayotga ma’no kiritish uchun yashaydi. Davlat siyosati aynan shu imkoniyatlarni yaratishga qaratilganida islohotlar haqiqiy mazmun kasb etadi.

Videoselektor yig‘ilishi va unda belgilangan vazifalar nafaqat iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichi, balki xalqqa xizmat qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish yo‘lidagi uzviy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu o‘rinda bir mulohaza. Bir insonning hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish faqat bir necha yillik xizmatlar bilan chegaralanmaydi, u bir necha yuz yilga tatiydigan samara berishi mumkin. Bugun iqtisodiy qiyinchilikdan chiqib, imkoniyat va iqtidorga ega bo‘lgan insonlar o‘ziniki bilan birga atrofdagilar hayotini ham yaxshilaydi. Ularning dunyoqarashi va faoliyati oiladan tashqari butun jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy uyg‘onish nuqtalariga aylanishi mumkin.

Har bir imkoniyat, har bir dastur va har bir investitsiya nafaqat iqtisodiy qadam, balki inson qadriyati va uning hayotini yaxshilashga qaratilgan ma’naviy harakat sanaladi. Davlat va xalq o‘rtasidagi bu ishonch va hamjihatlik zamonaviy O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim ustuvorlikdir.

Kambag‘allikka qarshi kompleks strategiya

Jamiyatning ruhi uning eng kichik birligida — mahallalarda yashaydi. Har bir mahalla nafaqat uylar va ko‘chalar yig‘indisi, balki odamlar orzu-umidi, mehnati va ijtimoiy hayotining markazidir. Shu bois, kambag‘allik va ishsizlikka qarshi chora-tadbirlar iqtisodiy ko‘rsatkich emas, balki xalqqa qaratilgan hamnafas xizmatdir. Har bir yaratilgan imkoniyat, qo‘yilayotgan har bir qadam mahalla ahli hayotida sezilarli o‘zgarish yaratadi hamda kelajak avlod uchun barqaror ijtimoiy va iqtisodiy merosni ta’minlaydi.

Mahalla islohotlarning asosiy “bog‘i” sanaladi. Agar mahallada ishsiz shaxslar yoki kambag‘al oilalar saqlanib qolsa, demak, davlatning dasturlari va qarorlari joyiga yetib bormagan, tizim samarasiz ishlamoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, mahalla va “yettilik” tizimi xalq muammolarini aniq va samarali hal qilishda asosiy mexanizmdir.

Joriy yil uchun kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilab qo‘yilgan maqsadlar katta. Jumladan, 1 million aholini doimiy ish bilan ta’minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingtaga yetkazish va ishsizlik hamda kambag‘allik darajasini 4,5 foizga tushirish. Bu rejalar xalq hayotida jiddiy o‘zgarish qilishga qaratilgan barqaror strategiyadir. Albatta, bunday marraga erishish oson emas. Bu yo‘lda faol ishtirok etish har bir shaxsdan mas’uliyat talab qiladi. Shuningdek, imkoniyatlarni oqilona ishga solish va ijtimoiy natijaga aylantirish lozim.

Mahallalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda kichik quyosh elektr stansiyalari muhim vosita sifatida e’tiborga olingan. Joriy yilda 903 ta mahallada har birining quvvati 300 kilovatt bo‘lgan stansiyalar qurilishi belgilangan. Ular mahallada qo‘shimcha daromad manbai yaratish bilan birga oilalarni ish bilan ta’minlaydi, energiya tejamkorlik va “yashil” loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bu tadbirlar iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ham ega. Quyosh energiyasi tabiatni muhofaza qilish, uglevodorod yonilg‘ilardan foydalanishni kamaytirish va atmosferani ifloslanishdan himoyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, mahallalarda yashovchi kambag‘al oilalarning daromadi ortib, ularda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik paydo bo‘ladi. Shu ma’noda, kichik quyosh elektr stansiyalari faqat energiya manbai emas, balki mahalla iqtisodiyotining yangi quvvati, barqaror ijtimoiy taraqqiyotning muhim elementidir.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Aholi soni o‘sishi, iqlim o‘zgarishi va resurslar cheklanganligi sharoitida har bir davlat o‘z ichki imkoniyatlariga tayanib, barqaror yechimlarni izlamoqda. Bu jarayonda qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, aholi tomorqalari va foydalanilmay kelayotgan yer maydonlarini ishga solish nafaqat mahsulot yetishtirish, balki aholi bandligini ta’minlashning ham muhim manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugun yurtimizda tomorqa madaniyati bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Ko‘plab oilalar o‘z tomorqasidan unumli foydalanib, nafaqat oila ehtiyojini qondirmoqda, balki bozorga mahsulot chiqarib, barqaror daromad manbaiga ega bo‘lmoqda. Bu — amaliy natija, real hayot haqiqati. Albatta, guruch kurmaksiz bo‘lmaydi, ya’ni bu yo‘lda muammo va kamchiliklar yo‘q emas. Ammo muhim jihati shundaki, tizim ishlayapti, tajriba to‘planyapti va eng asosiysi, odamlarda yerga, mehnatga va o‘z imkoniyatiga ishonch ortyapti.

Ana shu jarayonda ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishda mahallalarning ixtisoslashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 903 ta “og‘ir” mahallada 100 ming gektar tomorqa va ijara yerlari mavjud. Agar hokimlar va “mahalla yettiligi” suv ta’minotini yaxshilash, aholini urug‘ va ko‘chatlar bilan ta’minlash, ish jarayonini tizimli tashkil etishga e’tibor qaratsa, aholi daromadi va turmush sifatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi.

Bu yo‘nalishda davlat tomonidan qo‘shimcha moliyaviy mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, tomorqa yer egalari uchun ko‘chat xaridining 50 foizi qoplab berilishi, “shpaler”lar uchun subsidiyalar ajratilishi, tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish uchun kompensatsiyalar to‘lanishi belgilangani yerdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va aholida o‘zini o‘zi ta’minlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pillachilik kooperatsiyasi va uyda pilla yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali ham aholi iqtisodiy faolligi qo‘llab-quvvatlanyapti. Bu sohada ish boshlash istagida bo‘lgan oilalarga 20 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratilishi, yil davomida 2 ming gektar o‘rmon yerlarining 4 ming kambag‘al oilaga 50 sotixdan berilishi nafaqat daromad manbai, balki oilalar uchun uzoq muddatli barqaror hayot poydevoridir. Pillachilik mahallalarda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratib, oilalarni uy sharoitida mehnat bilan ta’minlash imkonini beradi.

Mazkur chora-tadbirlar davlatning inson qadriga munosabatini, ijtimoiy adolat va mas’uliyatni amalda namoyon etishidir. Zero, ijtimoiy barqarorlik har bir oilaning roziligi va hayotdan mamnunligida mujassam bo‘ladi.

Bandlik va daromad manbai

Har qanday barqaror iqtisodiy tizimning tayanchi kichik va o‘rta biznesdir. Chunki aynan shu soha jamiyatning eng quyi qatlamlarigacha yetib boradigan, inson tashabbusi va mehnatini iqtisodiy qudratga aylantiradigan muhim mexanizm hisoblanadi. Kichik va o‘rta biznes faqat korxonalar yoki tadbirkorlik subyektlari emas, balki millionlab oilaning kundalik turmushi, orzu-umidlari va mustaqil hayotga intilishining ifodasidir. Shu ma’noda, davlat iqtisodiyotining barqarorligi, avvalo, mahalla va oila darajasida shakllangan tadbirkorlik muhitiga bog‘liq. Zero, iqtisodiyot kuchli bo‘lsa, jamiyat barqaror, jamiyat barqaror bo‘lsa, davlat mustahkam bo‘ladi.

Ana shu tamoyildan kelib chiqib, joriy yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so‘mlik kredit resurslari ajratilishi belgilandi. Bu mablag‘ nafaqat iqtisodiy faollikni oshirish, balki aholining o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlash, mehnat orqali farovonlikka erishish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Xususan, 37 ta “og‘ir” tumanda “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida 12 foizli imtiyozli kreditlar taqdim etilishi mahallalarda yangi iqtisodiy harakatni boshlab berishi bilan ahamiyatlidir.

Imtiyozli kreditlarning eng yuqori miqdori barcha tumanlarda 1,5 barobar oshirilib, 50 million so‘mga yetkazilishi ham tadbirkorlikni keng qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan aniq qadamdir. Bu chora mahallalarda “ikkinchi iqtisodiy qavat”ni, ya’ni ish haqiga qaram bo‘lmagan, mustaqil daromad manbaiga ega aholi qatlamini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiy mustaqil inson faol fuqaro, faol fuqaro esa jamiyat tayanchidir.

Shuningdek, import qilingan va sertifikatlangan nasli chorva uchun 100 million so‘mgacha, uy mehmonxonasi, kichik muzlatkichlar, mahsulotni saqlash va qayta ishlash minitexnologiyalari uchun 150 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratilishi tadbirkorlik turlarini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Bu esa mahallalarda faqat xomashyo yetishtirish emas, balki qo‘shimcha qiymat yaratish, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

> **Iqtisodiyotning 7,7 foiz o‘sishi va yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard dollardan oshgani, avvalo, mehnat bozoridagi faollik, ish o‘rinlari va aholi daromadlari ko‘payishi demakdir.**

Ayniqsa, chegara va anklav hududlarda joylashgan 563 ta mahallada tadbirkorlik loyihalari uchun kredit miqdorining 1 milliard so‘mgacha oshirilishi strategik ahamiyatga ega. Bu hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirish nafaqat daromadni oshiradi, balki ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Mazkur maqsadda

“Oilaviy tadbirkorlik” dasturlariga ajratilgan 3,6 trillion so‘mdan tashqari yana 2 trillion so‘m qo‘shimcha resurs yo‘naltirilishi davlatning ushbu sohadagi qat’iy irodasini namoyon etadi.

Mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va mahsulot yetishtirishni rag‘batlantirish uchun 17 trillion so‘m bank kreditlari ajratilishi, ularning 4 foizi mahsulot yetishtirishda, 6 foizi esa qayta ishlash loyihalarida kompensatsiya qilinishi tadbirkor uchun moliyaviy yukni yengillashtiradi. Bu esa tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydi, qo‘rquv o‘rnini ishonch, intilishni esa natija bilan almashtiradi.

Bundan tashqari, mahalla tadbirkorlari va hokim yordamchilari malakasini oshirish maqsadida Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi davlatlarga bir oylik stajirovkalar tashkil etilishi islohotlarning institutsional asosini mustahkamlaydi. Chunki bilim va tajriba bilan quvvatlanmagan islohot barqaror natija bermaydi. Professional rahbarlik va mas’uliyat esa kambag‘allikni qisqartirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bu chora-tadbirlar davlatning inson qadriga munosabatini, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotga intilishini yaqqol ko‘rsatadi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mehnat orqali qadr topish imkoniyati yaratilmoqda.

Shu ma’noda, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish faqat iqtisodiy siyosat emas, balki xalq va davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydigan, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlaydigan strategik yo‘ldir. Haqiqiy taraqqiyot pul va raqamlarda emas, balki inson hayotidagi sezilarli o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Ana shu g‘oya zamonaviy O‘zbekiston islohotlarining asosiy falsafasini belgilab bermoqda.

Adolatli podshoh Xorun ar-Rashid haqida bunday rivoyat bor. Bir kuni u shikorga chiqqan paytida o‘tin terib yurgan keksa cholga duch keladi. Podshoh odatdagidek duo so‘raydi: “Ota, bizga bir duo qiling, ovimiz baroridan kelsin”. Chol esa qisqa va ma’noli javob beradi: “Allohim, senga ming yil umr bersin, bolam”. Bu so‘z podshohni o‘yga toldiradi. Zero, dunyoda ming yil umr ko‘rgan inson bo‘lmagan. Podshoh duoning ma’nosini so‘raydi. Chol esa xotirjamlik bilan javob beradi: “Bolam, to‘g‘ri, sen ming yil umr ko‘rmaysan. Vaqti kelib omonat joningni Yaratganga topshirasan. Ammo sen bu dunyoni tark etganingdan keyin ham qilgan adolatli ishlaring, xalqqa qilgan xizmatlaring ming yillar davomida yashasin, odamlarning xotirasida qolsin deb duo qildim”.

Inson umri uning yashagan yili bilan emas, balki qoldirgan merosi va xalqqa qilgan foydasi bilan o‘lchanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, aholini kambag‘allikdan chiqarish va ularga iqtisodiy imkoniyatlar yaratish ham insonlar uchun, ham butun jamiyat uchun ming yillarga tatiydigan haqiqiy xizmatdir.

Bugungi kundagi barcha dasturlar va islohotlar, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali mahallalarda imkoniyatlar yaratish, ish bilan ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish yo‘lidagi barcha harakatlar tarixda abadiy iz qoldirishi mumkin. Har bir imtiyozli kredit, har bir investitsiya va har bir mahalla tadbirkorligi faqat iqtisodiy natija emas, balki xalq hayotida sezilarli ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlarning ochiq ifodasi. Zero, har bir imkoniyat va har bir ijtimoiy qadam xalqqa qayishadigan ish, jamiyat taraqqiyotiga qo‘shilgan tarixiy hissadir.

Suv va hayot

FOYDALANILMAYOTGAN ULKAN RESURS

Muhsiddin NIZOMIDDINOV,
xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi deputati

Bugun dunyo insoniyat tarixidagi eng murakkab sinovlardan biri — suv tanqisligi bilan yuzma-yuz kelmoqda. U tobora geosiyosiy, iqtisodiy va ekologik masalaga aylanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, aholining ko‘payishi, sanoatlashtirish, suv resurslaridan noo‘rin va samarasiz foydalanish natijasida odamlar hayoti qiyinlashmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozir Yer yuzida qariyb 1 milliarddan ortiq odam turli darajadagi suv yetishmovchiligi sharoitida yashamoqda.

Mazkur muammo Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. O‘tgan yil 16-dekabrda Prezidentimiz Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, shahar muhitini yaxshilash va munosib yashash sharoitini yaratish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bu masalaga alohida to‘xtalib, yomg‘ir suvi yig‘iladigan 17 ta inshoot barpo qilinishi, ularda jamlangan obihayot daraxt va yashil hududlarni sug‘orishga ishlatilishini ta’kidlagan edi.

Mintaqamiz tabiiy-iqlim sharoitiga ko‘ra suv resurslariga boy hududlar qatoriga kirmaydi, ammo aholining o‘sishi, iqtisodiyotning kengayishi va iqlim o‘zgarishlari ta’siri muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. O‘zbekiston suv resurslarining katta qismi transchegaraviy daryolarga bog‘liq bo‘lib, bu holat suv xavfsizligini strategik masalaga aylantirmoqda.

Asosiy muammolardan biri suv manbalarining qisqarib borishi va barqaror emasligidir. So‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyodagi muzliklar maydonining sezilarli kamayishi Amudaryo va Sirdaryo kabi asosiy suv manbalariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada suv oqimi notekis tus olmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi, sanoat va aholi ta’minotida uzilishlar xavfini kuchaytirmoqda.

Ikkinchi muammo — suvdan foydalanish samaradorligining pastligi. Amaliyotda ichimlik suv texnik va xo‘jalik ehtiyojlari uchun keng qo‘llanmoqda. Ko‘p qavatli uylar, xizmat ko‘rsatish obyektlari, jumladan, avtomobil yuvish shoxobchalari, ko‘kalamzorlashtirish va sanitariya tizimlarida ichimlik suv ishlatilishi suv ta’minotiga katta bosim bermoqda. Suv tarmoqlaridagi yo‘qotishlar va eskirgan ba’zi infratuzilma esa bu muammoni yanada keskinlashtiradi.

Uchinchi muammo muqobil suv manbalaridan yetarlicha foydalanilmayotganidir. Yomg‘ir suvi, qayta ishlangan oqova suv kabi resurslar amalda o‘ta zarur bo‘lsa-da, hozircha tizimli va majburiy yondashuv yo‘qligi sababli keng joriy etilmagan. Aslida, yomg‘ir suvini yig‘ish va texnik ehtiyoj uchun qayta ishlatish orqali ichimlik suvga talabni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Yomg‘ir suvidan foydalanish loyihasi O‘zbekistonda suv tanqisligi sharoitida ichimlik suv ta’minotiga tushayotgan bosimni kamaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda shahar va qishloq infratuzilmasini barqarorlashtirishga qaratilgan kompleks tizimdir. Mazkur loyiha yomg‘ir suvini tabiiy jarayonda yo‘qotib yubormay, yig‘ish, tozalash, saqlash va texnik ehtiyojlar uchun qayta ishlatish tamoyiliga asoslanadi. Tizimning ishlash mexanizmi bir necha bosqichdan iborat.

Avvalo, binolarning tom qismi yomg‘ir suvini yig‘ish uchun asosiy maydon vazifasini bajaradi. Yomg‘ir suvi maxsus tom novlari va quvurlar orqali yig‘ilib, “first-flush” ajratkichdan o‘tkaziladi. Ushbu mexanizm yomg‘irning dastlabki iflos qatlamini ajratib, chang va zararli aralashmalarni tizimga kirishidan oldin ajratib oladi. Shundan so‘ng suv mexanik va qumli filtrlardan o‘tkazilib, yopiq va gigiyenik talablar asosida jihozlangan rezervuarlarda saqlanadi. Saqlangan yomg‘ir suvi ichimlik uchun emas, balki texnik ehtiyojlar uchun mo‘ljallanadi. Xususan, ko‘kalamzorlashtirish va bog‘larni sug‘orish, hojatxona baklarini to‘ldirish, hovli va yo‘laklarni yuvish, sovitish tizimlari, shuningdek, avtomobillarni yuvish jarayonida foydalanish mumkin. Bunday yondashuv orqali ichimlik suvga talab 30-50 foizgacha qisqaradi, ayrim obyektlarda esa texnik suv ehtiyoji deyarli to‘liq yomg‘ir suvi hisobidan qoplanadi. Loyihaning yana bir muhim jihati ekologik va iqtisodiy samarasidir. Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari drenaj va kanalizatsiya tarmoqlariga tushadigan bosimni kamaytiradi, suv toshqinlari xavfini pasaytiradi hamda yerning tabiiy to‘yinishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ichimlik suvni qayta ishlash va yetkazib berishga ketadigan energiya sarfi qisqarib, kommunal xarajatlar kamayadi.

O‘zbekistonda yomg‘ir suvidan foydalanishga ehtiyoj nihoyatda yuqori. Suv xavfsizligini ta’minlashda faqat an’anaviy manbalarga tayanish yetarli emas, muqobil va qo‘shimcha manbalarni ishga solish zarur. Shaharsozlik nuqtayi nazaridan qaraganda, yomg‘ir suvidan foydalanish, ayniqsa, juda muhim. So‘nggi yillarda shaharlar kengayib, yangi turar joy massivlari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, yo‘llar va qattiq qoplamali maydonlar ko‘paymoqda. Bu esa tabiiy infiltratsiyani kamaytirib, yomg‘ir suvining katta qismi kanalizatsiya va drenaj tizimlari orqali yo‘qotib yuborilishiga olib kelmoqda. Aslida, ushbu suvni binolarning tom qismidan yig‘ib, texnik ehtiyojlarga yo‘naltirish orqali shahar infratuzilmasini yanada barqarorlashtirish mumkin.

Infratuzilma nuqtayi nazaridan yomg‘ir suvidan foydalanish tizimlariga suv va kanalizatsiya tarmoqlari bosimini yengillashtiruvchi omil sifatida qaralishi lozim. Hozir hududlarda suv tarmoqlari eskirgan, yo‘qotishlar talaygina. Texnik ehtiyojlar uchun ichimlik suv ishlatilishi esa muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Yomg‘ir suvini yig‘ish va qayta ishlatish tizimlari yo‘lga qo‘yilsa, ichimlik suv asosan iste’molga yo‘naltiriladi, infratuzilmaga bosim kamayadi.

Huquqiy-me’yoriy asoslar nuqtayi nazaridan esa ushbu masalaga ixtiyoriy tashabbus sifatida emas, balki majburiy va tizimli yondashuv sifatida qarash zarur. Amaldagi sharoitda yomg‘ir suvidan foydalanish bo‘yicha aniq milliy standartlar va qurilish me’yorlarida majburiy talablar yetarli darajada mustahkamlanmagan. Shu sababli Shaharsozlik kodeksi va qurilish normalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, yangi qurilayotgan binolarda yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlarini majburiy joriy etish dolzarb vazifa.

Avtomobil yuvish shoxobchalarida katta miqdorda ichimlik suv sarflanadi — bitta mashina yuvish uchun o‘rtacha 150-200 litr suv ketadi. Avtomobil yuvish jarayonining dastlabki bosqichida chang, loy va yirik iflosliklarni ketkazish, ko‘piklash va chayish ichimlik suv talab qilmaydi. Ushbu jarayonlarda yig‘ilgan va filtratsiyadan o‘tkazilgan yomg‘ir suvidan samarali foydalanish mumkin. Ichimlik suvdan esa faqat yakuniy chayish bosqichida foydalanish kifoya qiladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, zamonaviy yondashuv va yomg‘ir suvi asosidagi tizimlar joriy etilgan avtoyuvish shoxobchalarida ichimlik suvga ehtiyojni kamida 60-70 foiz qisqartirish mumkin. Masalan, kuniga 50 ta avtomobilga xizmat ko‘rsatilsa, an’anaviy usulda 9000 litr ichimlik suv sarflanadi. Yomg‘ir suvidan foydalanilganda esa kuniga qariyb 3500 litr ichimlik suv tejaladi. Bundan tashqari, yomg‘ir suvidan foydalanish avtoyuvish shoxobchalari uchun iqtisodiy jihatdan ham foydali. Suv xarajati va oqova suv to‘lovi kamayishi xizmat tannarxini pasaytiradi, tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini oshiradi.

Yomg‘ir suvidan foydalanish ko‘plab mamlakatlarda samarali amaliyotga aylangan va turli sohalarda ijobiy natija bermoqda. Bu yechim suv tanqisligi kuchli, shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi va texnik ehtiyojlar uchun suv resurslarini tejash zarur bo‘lgan hududlarda keng joriy etilgan.

Xitoydagi ba’zi shahar va infratuzilmalarda yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari faol qo‘llanmoqda. Masalan, Pekindagi Milliy stadion va Milliy suv sporti markazi binolari tomidan yig‘ilgan yomg‘ir suvi hojatxonalarni yuvish, maydonlarni sug‘orish kabi texnik ehtiyojlarni qisman qondirmoqda. Pekin shahrida yig‘ilgan yomg‘ir suvi hajmi yiliga o‘nlab million kub metrga yetmoqda.

Cingapurdek kichik shahar — davlat ham suv boshqaruvi bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega. U yerda texnik ehtiyojlar uchun suvning taxminan 45 foizi yomg‘ir suvi hisobidan qoplanadi. Bu qishloq xo‘jaligi va shahar infratuzilmasida suvni tejashga katta hissa qo‘shadi.

Germaniya va Yaponiya shaharsozlik tizimlarida ham yomg‘ir suvidan foydalanish orqali drenaj tizimlariga tushadigan bosim kamaytirilib, shahar hududlarida toshqin xavfi pasaytirilmoqda. Germaniyada bog‘lar va sanitariya tizimlarida yomg‘ir suvi qayta ishlanadi. Yaponiya esa shu orqali shaharlarni barqaror suv boshqaruvi tizimiga o‘tkazmoqda.

Hindistonda an’anaviy hamda zamonaviy tizimlar orqali yomg‘ir suvini yig‘ish amaliyoti keng yoyilgan. Xususan, qurg‘oqchil hududlarda suv yig‘ish inshootlari zaxiralarni mustahkamlash, suv taqchilligi yuqori bo‘lgan vaqtlarda ta’minotga xizmat qiladi. Bu tajribalardan foydalanish suvni tejash bilan birga, infratuzilma barqarorligini oshirish, shahar muhitini yaxshilash va suv ta’minotidagi xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning iqlim sharoiti yomg‘ir suvidan foydalanish uchun qulay. Mamlakatimizda yillik yog‘ingarchilik miqdori o‘rtacha 186 millimetr bo‘lib, tog‘li va tog‘oldi hududlarda ko‘rsatkich 300-900 millimetrgacha yetadi. Bu yomg‘ir suvini yig‘ish uchun yetarli hajmdir. O‘zbekiston shimoliy tekisliklardan tog‘li hududlargacha katta geografik xilma-xillikka ega. Yomg‘ir suvi yig‘ish tizimlari uchun turli sharoitlarda moslashuvchan yondashuvlar qo‘llanishi mumkin. Qurg‘oqchil markaziy viloyatlar uchun katta saqlash rezervuarlari, tog‘li hududlarda esa tabiiy drenajlardan foydalanish imkoni bor. Yig‘ilgan yomg‘ir suvidan texnik ehtiyojlar, sug‘orish, hojatxona tizimlari, avtoyuvish, ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Bu ichimlik suvni yetkazib berish, tozalash va nasoslash xarajatlarini qisqartiradi, shu bilan iqtisodiy tejamkorlikni oshiradi va daromad keltiradi. Bu tizim orqali shahar mikroiqlimini yaxshilash, ichimlik suvga bo‘lgan talabni kamaytirish va drenaj tizimlariga tushadigan yukni pasaytirishga qaratilgan ishlar boshlanmoqda.

Mazkur g‘oyani amaliyotga joriy etish tizimli, bosqichma-bosqich va aniq mas’uliyat mexanizmlariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Birinchi bosqichda huquqiy-me’yoriy asos yaratish masalasi turibdi. Avvalo, yomg‘ir suvini yig‘ish va texnik ehtiyojlarda foydalanishni tartibga soluvchi aniq talablar ishlab chiqilishi zarur. Buning uchun Shaharsozlik kodeksi va amaldagi qurilish me’yorlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, yangi qurilayotgan turar joylar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, ijtimoiy bino-inshootlarda yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari majburiy talab sifatida belgilanishi lozim. Shu bilan birga, ichimlik suv va yomg‘ir suvi tarmoqlarini ajratish, sanitariya va xavfsizlik talablarini aniq ko‘rsatib beruvchi milliy standart ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda pilot loyihalari ishga tushiriladi. Loyihani darhol butun respublika bo‘yicha joriy etishdan ko‘ra, iqlim va qurilish faolligi yuqori bo‘lgan hududlarda sinov tariqasida boshlash maqsadga muvofiq. Masalan, Toshkent shahri va viloyatidagi yangi qurilayotgan uy-joy massivlari, avtoyuvish shoxobchalari, savdo markazlari pilot hudud sifatida tanlanishi mumkin. Ushbu bosqichda texnik yechimlar, real suv tejash hajmi va iqtisodiy samaradorlik amaliy hisob-kitoblar orqali baholanadi.

Uchinchi bosqichda moliyaviy va iqtisodiy rag‘batlantirish amalga oshirilishi kerak. Yomg‘ir suvidan foydalanish tizimlarini o‘rnatayotgan quruvchilar va tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari, kreditlar yoki subsidiya mexanizmlarini joriy etish loyihaning ommalashuvini tezlashtiradi. Ayniqsa, avtoyuvish shoxobchalari va xizmat ko‘rsatish obyektlari uchun bunday qo‘llab-quvvatlash qisqa muddatda sezilarli natija beradi.

Qurilish obyektlarini foydalanishga qabul qilishda yomg‘ir suvini yig‘ish tizimining real mavjudligi va ishlashini majburiy tekshiruv sharti sifatida belgilash zarur. Shu bilan birga, mahalliy hokimliklar, suv xo‘jaligi va qurilish idoralari o‘rtasida aniq vakolatlar taqsimoti yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Hisob-kitoblar va amaliy misollarga ko‘ra, o‘rtacha 100 kvadrat metr tom maydoniga ega bino yiliga taxminan 300 millimetrli yog‘ingarchilik sharoitida 30 ming litrga yaqin yomg‘ir suvini yig‘ish imkoniga ega. Agar 500 kvadrat metr tom, 5 qavatli 18 xonadonli turar joy binosini olsak, yiliga o‘rtacha 150 ming litr texnik suv zaxirasi shakllanadi. Ushbu suv hojatxona tizimlari, ko‘kalamzorlashtirish va umumiy xo‘jalik ehtiyojlarida ishlatilsa, har bir xonadonda ichimlik suv iste’moli 30-50 foizgacha kamayadi. Yirikroq miqyosda qaralganda, agar faqat 10 mingta xonadonda yomg‘ir suvini yig‘ish tizimi joriy etilsa, yiliga kamida 180 ming kub metr (180 million litr) ichimlik suvni tejash mumkin. Avtoyuvish shoxobchalari misolida esa samaradorlik yanada yaqqol ko‘rinadi: yiliga 1 million litrdan ortiq ichimlik suv tejaladi. Agar bu tizim kamida 1000 ta avtoyuvish shoxobchasida joriy etilsa, yiliga 1,2 milliard litrdan ziyod suv iqtisod qilinadi.

Iqtisodiy samaradorlik, avvalo, ichimlik suvni ishlab chiqarish, tozalash va yetkazib berishga ketadigan xarajat kamayishida namoyon bo‘ladi. Suv ta’minoti tizimlariga tushadigan bosim kamayadi, energiya sarfi 8-12 foizgacha qisqaradi, oqova suv hajmi kamayishi hisobiga kanalizatsiya xarajati ozayadi. Xonadonlar bo‘yicha olganda, bir yilda kommunal to‘lovlar o‘rtacha 120-250 ming so‘mgacha qisqarishi mumkin. Xullas, yomg‘ir suvidan foydalanish loyihasi nafaqat ekologik, balki aniq raqamlar bilan isbotlangan iqtisodiy foyda keltiradigan, o‘zini o‘zi to‘liq oqlaydigan samarali yechimdir.

QR-KOD ORQALI VIDEOGA O‘TING!

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bir hudud

...1980-yilning o‘rtalari. Ahmad aka yangi ro‘zg‘or qilib, alohida chiqadigan bo‘ldi. O‘shanda otasi qishloqdan bir oz narida, keng maydondan uy qurib berish harakatiga tushgan edi. Ko‘chib o‘tadigan joyni ko‘rish uchun kelganida Ahmad aka atrofga termilib, nima deyishini bilmay qoldi. Bitta-ikkita hovlini aytmasa, shunchaki yantoqzordan iborat kenglik edi. Birorta daraxt, oqar suv yo‘q.

YOMG‘IR SUVI: HAM NE’MAT, HAM DAROMAD

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, shu yerga kelib joylashdi. Asta-sekin xonadonlar soni orta boshladi. Uzog‘i bilan besh yilda mazkur manzilda kichik qishloq paydo bo‘ldi. Endi aholi birlashib, olisroq bo‘lsa-da, kanaldan suv tortib kelish harakatiga tushdi. Hashar uyushtirib, katta mablag‘ sarflab, ariq qazib, suv keltirildi. Endi aholi tomorqasida nimadir ekib, ro‘zg‘origa yaraydigan mahsulot oladigan, uydan ortganini bozorga olib chiqib, besh-olti so‘m foyda topadigan bo‘ldi.

Avvaliga hammasi yaxshi edi. Lekin ke-yinchalik ayrim muammolari borligi sabab suv oqimi to‘xtab qoladigan bo‘ldi. Endi kimdir ariq yoqalab borsa, kamida ikki kunda ishi bitardi. Gohida quruq qaytadigan damlar ham bo‘ldi. O‘shanda xo‘jalikning ekin maydoni uchun ko‘p suv ishlatilar, shundan ortsagina odamlarga berilishi mumkin edi. Deyarli har kuni suv masalasida mojaro ko‘tarilardi. Vaqt o‘tishi bilan xirmon ko‘tarilib, salqin kunlar boshlangan paytlaridagina suv olishga ruxsat tegadigan bo‘ldi. Bu paytda esa deyarli hech kim tomorqaga ekin ekmas, suvga ehtiyoj ham qolmasdi.

— Bundan 45 yil avval atrof yaylov edi, — deydi Ahmad ota Xudoyberdiyev. — Ko‘chib kelganimizda 25 yoshda edim. Ko‘p mehnat bilan bu yerni obod qilganmiz. Yer yaxshi, nima eksangiz ham mo‘l hosil olasiz. Ammo obihayot muammo bo‘lgani bois, yerdan unumli foydalana olmasdik. Keyin hovlida tajriba tariqasida issiqxona qurib, limon ekdik. Avvaliga ayrimlar “Isitish uchun gaz kerak”, deb shuncha mehnatimiz befoyda ekanini ta’kidladi. Izlangan imkon topadi. Yerni kavlab, limonni quyiroqqa ekdik. Keyin sovuq kunlarda ikki-uch qavat plyonka bilan yopib, nihollarni asradik. O‘shanda qishga yaqin suv muammo bo‘lmagani bois, limonni muammosiz sug‘orardik. So‘ng suvni olib kelish katta xarajat talab qiladigan bo‘lib qoldi. Tejamkorlik yo‘lini izlay boshladik. Issiqxona yonida ikkita hovuz qurdik. Boshida bir yilda bir marta bo‘lsa-da, ariqdan suv keltirib, hovuzni to‘ldirib olardik. Shundan tomchilatib sug‘orishni yo‘lga qo‘ydik. Keyinchalik yomg‘ir suvini hovuzga yig‘a boshladik. Uyning tomidan, issiqxona tepasidan tushadigan qor-yomg‘ir suvini quvur orqali hovuzda to‘playmiz. Hisoblasak, yomg‘ir suvidan foydalanish ancha qulay, xarajatsiz. Endi oldingidek ariq yoqalab kun o‘tkazib yurmaymiz. Hozir butun mahallamizda shu usul qo‘llanmoqda.

Sohibkor mahallasi Qamashi tumanidagi eng ko‘p limon yetishtiriladigan hududlardan. Birgina Ahmad otaning issiqxonasida ellikdan ortiq limon daraxti bor. Yonidagi hovlida to‘ng‘ich o‘g‘li Abdumannon aka ko‘chatchilikni yo‘lga qo‘ygan. U bir mavsumda 5000 ta limon ko‘chati sotadi. Ota-bola ikkita issiqxonadan yiliga o‘rtacha 300-400 million so‘m daromad topmoqda. Qo‘ni-qo‘shnilar ham ulardan o‘rnak olgan.

— Mahallamizda ko‘pchilik issiqxona qurib, limon yetishtirishni yo‘lga qo‘ygach, men ham shu ishga qo‘l urdim, — deydi Qurbonali Boybulov. — Yetti sotix yerga limon ekdim. Ikki yildan beri hosil beryapti. Joriy mavsum barakali keldi. Ikki tonnadan ortiq hosil oldik. 60 million so‘m bo‘ldi. Hali yana 500 kilogrammga yaqin limon bor. Nasib etsa, daromadimiz 80 million so‘mga borib qoladi. Rosti, shu paytgacha suv masalasiga yechim topolmay yurgandim. Katta mablag‘ sarflab, ancha olisdagi kanaldan quvur tortib kelgandim. Kanalda bir kun suv bo‘lsa, haftalab bo‘lmaydi. Surishtirsam, mahallamizning keksa bog‘bonlari allaqachon yomg‘ir suvidan tomchilatib sug‘orishda foydalanayotgan ekan. Men ham 2025-yil yozida 50 tonna sig‘imli hovuz qurdim. Hozir issiqxona tomidan tushadigan yomg‘ir suvini to‘g‘ri hovuzga yo‘naltirib, bir hovuzga yig‘ib boryapman.

Bog‘bonlarning aytishicha, bu mahallada limonchilikni To‘xta bobo Ochilov boshlab bergan. Keyinchalik boshqalarga ham o‘rgatib, aholini tomorqadan unumli foydalanishga undagan.

— Bunga ancha yil bo‘ldi. U paytlarda bu atrofda deyarli hech kim limon ekmasdi. Avvaliga limon bizda ko‘kararmikan deb ko‘p o‘yladim. O‘shanda tumanimiz bo‘yicha atigi uch-to‘rtta joyda limon ekilgan ekan. U ham bo‘lsa, xo‘jalik idoralarida. Borib, har birini o‘rgandim. Qarovsiz, bir ahvolda edi. Shunday bo‘lsa-da, hosil berayotgandi. Bildimki, buni eksa bo‘ladi. Dastlab hovlimizda qo‘lbola issiqxona qurib, ko‘chat o‘tqazdim. Oradan ikki yil o‘tib, daraxtlarim hosilga kirdi, — deydi yoshi 90 ga yaqinlashgan To‘xta bobo. — O‘shanda xo‘jalikda soham bo‘yicha ishlardim. Maoshim ham o‘ziga yarasha, ro‘zg‘orning kamiga yaramas, zo‘rg‘a kun o‘tardi. To‘qqiz farzandim bor. Mehnat qilib, qo‘shimcha mablag‘ topishga intildim. Bir kuni limonlar pishib yetilgach, bozorga olib chiqdim. Qarasam, mendan boshqa biror kishida bu meva yo‘q. Narxini surishtirsam, yaxshigina ekan. Sotishni boshlab yubordim. Ko‘pchilik havasga ham olib ketardi. Mehnat qilsang — rohat ko‘rasan deganlaridek, hosildan tushgan mablag‘ oilamizning kamiga yaray boshladi. Buning foydasini olavergach, issiqxonada oilaviy ishlay boshladik. Daraxtlar sonini ham asta-sekin ko‘paytirib, issiqxonani kengaytirdik. Endi ro‘zg‘or but, uyda xotirjamlik hukm sura boshladi.

Tashabbus tez quloch yozdi. To‘xta boboning xarajatidan daromadi ortib borayotganini eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar ham shu ishning boshini tutdi. Asli bekorchilikni xush ko‘rmaydigan bobo ham yeng shimarib, limon ekish istagida kelgan har bir kishiga tushuncha berishdan erinmadi. Gohida o‘zi bosh bo‘lib ekib berdi. Nihol hosilga kirgunga qadar muntazam xabardor bo‘lib, kerakli ko‘rsatmalarni ayamadi. Keyinchalik o‘zi limon ko‘chatini ko‘paytirib sotadigan bo‘ldi. Bu daromadiga yanada baraka qo‘shdi. Endi nafaqat viloyat, balki mamlakatimizning turli hududidan ko‘chatga buyurtma beradiganlar topildi. Bundan tashqari, bog‘bon bobo bolalari bilan birga ekib berish xizmatini yo‘lga qo‘ydi. Kerakli maslahatlarni esa doim bepul berib keladigan bo‘ldi. Asosiysi, o‘zi istiqomat qiladigan Sohibkor mahallasida aynan shu yo‘nalishni targ‘ib qildi. Natijada bugun aholining asosiy qismi limonchilik bilan mashg‘ul. Halol mehnat evaziga ro‘zg‘ori obod, turmushi farovon bo‘lmoqda.

— Hozir mahallamizda 741 ta xonadon mavjud. Shundan 300 ga yaqinida limonchilik bor. Umumiy hisobda issiqxonalar hududi 7 gektar. Bir yilda o‘rtacha 600 ming tonna hosil olinadi. 2025-yildagi narx bo‘yicha hisoblasak, jami 18 milliarddan oshadi. Bu birgina limonning ortidan aholi topayotgan daromad. Bundan tashqari, chorvachilik ham

bor, — deydi “Sohibkor” MFYdagi hokim yordamchisi Suhrob To‘rayev. — Tajribali bog‘bonlar tashabbusi bilan aholi o‘z hovlisida katta imkoniyat borligini anglab yetmoqda. Natijada tomorqaning o‘zidan o‘rtacha 100 million so‘mgacha mablag‘ ishlab topmoqda. Ayniqsa, yomg‘ir suvini yig‘ib, tejamkorlik orqali sug‘orishning joriy etilishi xarajat kamayib, daromad ortishiga sabab bo‘ldi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 13-fevral, 30-son

Islohot odimlari

BIR OYDA

103,5 MILLIARD SO‘M

DAVLAT IJTIMOIY SUG‘URTASI TIZIMINING DASTLABKI NATIJALARI

Boshlanishi 1-betda

Ish beruvchilardan moliyaviy yukning olinishi

Tahlillarga ko‘ra, o‘tgan yillarda byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollar to‘liq homiladorlik va tug‘uruq nafaqasi bilan ta’minlangan. Xususiy sektorda ishlovchilarning uchdan bir qismigina ushbu nafaqani olishga muvaffaq bo‘lgan. Aksariyat holatlarda tadbirkorlar ayol xodimlarni tug‘uruq davri yaqinlashganda ishdan bo‘shatgan yoki ish beruvchi nafaqani to‘lashdan bosh tortgan.

— 2026-yil 1-yanvardan mehnat qilayotgan barcha ayol, ishlayotgan hamma fuqaro davlat ijtimoiy sug‘urtasi doirasida homiladorlik va tug‘ish, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi bilan ta’minlanishi qonunda mustahkamlandi, — dedi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi Dilshodxon Muhammadjonova. — Shu yil 1-yanvardan homiladorlik va tug‘uruq, 1-iyuldan boshlab vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi fuqarolarga proaktiv shaklda, ya’ni murojaat talab qilinmagan holda belgilanadi.

Endi ijtimoiy to‘lovlar bilan bog‘liq moliyaviy yukning ish beruvchilar zimmasidan olib tashlanishi yangi tizimning yana bir muhim jihati. Bu tadbirkorlarga o‘z resurslarini ish o‘rinlari ochish, ishlab chiqarishni kengaytirish va biznesni rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi. Ilgari mazkur nafaqalarni to‘lash majburiyati ish beruvchilar zimmasida bo‘lgani sababli ular mahsulot yoki xizmatlar tannarxiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, bozordagi raqobatbardoshlikni pasaytirgan. Ayrim hollarda esa xarajatlarni qisqartirish maqsadida homilador ayollarni ishga qabul qilmaslik yoki ishdan bo‘shatish kabi salbiy holatlar kuzatilgan. Shuning uchun ham ko‘plab homilador ayollar tashkilotlarga ish so‘rab borishdan tortingan. Yangi tizim bu kabi holatlarning oldini olishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli.

Rasmiy bandlik rag‘batlantiriladi

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimi rasmiy bandlikni ham rag‘batlantiradi. Chunki nafaqalar fuqarolarning sug‘urta stajiga bog‘liq holda tayinlanadi. Ya’ni inson qanchalik uzoq muddat rasmiy ishlab, sug‘urta tizimida ishtirok etsa, ijtimoiy himoyasi shunchalik mustahkam bo‘ladi.

— Yangi yilning birinchi kunidan boshlab ijtimoiy sug‘urtaning yangi tizimi joriy etilib, Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etildi, — deydi jamg‘arma ijrochi direktori Nodir Musliddinov. — Tashkilotimizning asosiy maqsadlaridan biri — ixtiyoriy va majburiy tartibda yig‘iladigan badal to‘lovlarini jamlash va sug‘urta hodisasi yuzaga kelgan fuqarolarga sug‘urta nafaqasini tayinlab, o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash. Badal to‘lash majburiy va ixtiyoriy shaklda bo‘ladi. Majburiy shaklda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun bilan miqdori (stavkasi) belgilanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining bir qismi hisobidan, ixtiyoriy badal mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5 foizini har oy jamg‘armaga to‘lab borish bilan amalga oshiriladi.

Yangi tizim joriy etilishi tufayli 2026-yilda byudjet tashkilotlarida ishlovchi qariyb 2,2 million, xususiy sektorda band bo‘lgan 3,6 milliondan ortiq fuqaro, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan va norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi 7 milliondan ortiq shaxs davlat ijtimoiy sug‘urta tizimiga qamrab olinishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi orqali 2026-yilda sug‘urtalangan 165 ming shaxsga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi, 1-iyuldan boshlab esa 500 mingga yaqin sug‘urtalangan shaxsga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari fuqarolarning murojaatisiz, proaktiv shaklda to‘lab berilishi ko‘zda tutilmoqda.

Raqamlashtirish shaffoflikni ta’minlaydi

Yangi tizimning zamonaviyligi to‘liq raqamlashtirilganida ham ko‘rinadi. Bu esa nafaqalarning elektron tarzda, fuqarolardan qo‘shimcha hujjat yoki murojaat talab etilmagan holda avtomatik tayinlanishiga xizmat qiladi. O‘z-o‘zidan shaffoflik ta’minlanadi, ortiqcha byurokratik omillar qisqaradi va inson ishtiroki ham kamayadi.

Shu o‘rinda qisqa muddat (2026-yil yanvar oyi)dagi amaliyot natijalariga e’tibor qaratsak. Homiladorlik va tug‘ish nafaqasi bo‘yicha Davlat ijtimoiy sug‘urtasi jamg‘armasiga 11,6 mingta kasallik varaqasi kelib tushgan. Shundan 9 ming tasi (77,5 foizi) bo‘yicha 103,5 milliard so‘m miqdoridagi nafaqa tayinlangan. Qolgan 2,6 mingta mehnatga layoqatsizlik varaqasidan 1,6 mingtasi (14 foizi) bo‘yicha fuqarolar rasmiy band bo‘lmagani yoki sug‘urta staji yetarli emasligi sababli nafaqa tayinlash rad etilgan. Qolgan varaqalar yuzasidan nafaqa tayinlash yoki rad etish masalasi bo‘yicha o‘rganish ishlari davom etmoqda.

Nafaqa tayinlangani, to‘langani yoki rad etilgani haqida kasallik varaqasida ko‘rsatilgan mobil telefon raqamlariga tegishli SMS xabarnomalar yuborilayotgani ham fuqarolarni ortiqcha ovoragarchilikdan xalos etadi. Bu ham inson qadri amalda ta’minlanayotgani ifodasidir. Zero, birgina mana shu xabardorlik uchun ham yaqin-yaqingacha odamlar tegishli idoralarga yo‘l haqi va vaqt sarflardi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasining yangi tizimi shunchaki to‘lovlar mexanizmini o‘zgartirish emas, balki inson qadri, ijtimoiy adolat va davlatning fuqaro oldidagi mas’uliyatini amalda namoyon etuvchi muhim islohotdir.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Munosabat

QUYI BOSQICHGA YUQORI E’TIBOR

Bu — ta’lim tizimini takomillashtirishda tanlagan yo‘limiz

Insonning shaxs sifatida shakllanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida maktabgacha ta’limning o‘rni beqiyos. Ilk dunyoqarashlar, ilk tushunchalar shakllanadigan bu joyda bola jamiyatga qo‘shilish yo‘liga kiradi. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari maktabgacha ta’limning ahamiyatini, uning ta’limning keyingi bosqichlaridagi o‘rni nechog‘liq muhimligini ko‘p bor ta’kidlaydi.

Sherzod KARIMOV,
maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari

Aslida, butun boshli ta’lim tizimini baland binoga qiyoslasak, maktabgacha ta’lim — mustahkam poydevor. Shuning uchun, avvalo, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, tizimda davlat o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Joriy yilning 2-fevral kuni Prezidentimiz maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda kelgusidagi vazifalar bo‘yicha ham axborot berildi.

Joriy yil 5-fevral kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon ta’limning birinchi bo‘g‘iniga har qachongidan jiddiy yondashilayotganidan dalolat beradi. Maktabgacha ta’lim qamrovining keskin ortayotgani harakatlarimiz samarasini ko‘rsatayotgan amaliy dalildir. Ha, butun imkoniyatlarimizni ishga solib bugun farzandlarimizni ta’limning ilk bosqichiga qamrab olishga erishyapmiz. Ushbu xayrli maqsad bilan bolalar bog‘chasi tashkil etishga bel bog‘lagan tadbirkorlar endi avvalgidek sarson bo‘lmaydi. Ular uchun qator imtiyozlar berilyapti. Jumladan, qamrov darajasi 70 foizdan past bo‘lgan hududlarda ijtimoiy soliq stavkasi 5 foiz, 80 foizdan past bo‘lgan hududlarda tashkil etilgan nodavlat bog‘chalarga esa 1 foiz etib belgilanyapti. Ayni imtiyozlar tadbirkorning boshqa hududda mavjud bo‘lgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ham tatbiq etilishi bu boradagi faoliyatning yanada kengayishini ta’minlaydi.

Farmon bilan ta’lim sohasiga tegishli nodavlat sektorni rivojlantirish, xususan, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini subsidiyalash davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bo‘lishi belgilangan. Qamrov darajasi 80 foizga yetmagan tumanlar uchun alohida subsidiyalar beriladigan bo‘lyapti.

E’tiborli jihatlardan yana biri, bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlarini o‘z tarkibiga olgan “Yangi avlod” maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini tashkil etish belgilandi. Joriy yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Toshkent shahrida, 2027-2028-yillarda esa qolgan hududlarda shunday bog‘chalar tashkil etiladi. Ular bolalarning san’at, ijod, robototexnika va kasbga doir ko‘nikmalarini erkin shakllantirishi ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy sharoitli ta’lim tashkilotlarida xorijiy tajribalarni joriy etishga ham keng imkon bo‘ladi. Ularni ommalashtirish nafaqat o‘quvchilar tarbiyasiga, balki maktab muhitini yanada yaxshilashga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, bu orqali bolalarning ilm-fanga qiziqishi va intilishi yanada kuchayadi. Davlatimiz rahbari maktabgacha ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etishga ham alohida to‘xtaldi. Hozir mamlakatimizda xorijiy metodikalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, Fransiya, Yaponiya, Singapur ta’lim tajribalari respublikamiz miqyosida sinov tariqasida tatbiq qilinmoqda.

2028-yilga qadar har bir hududda 120 o‘rinli “Yangi avlod” davlat bog‘chalari hamda ularning tarkibida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari tashkil etilishi ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratishi bilan ham muhim. Zero, mazkur bog‘chalarda qo‘shimcha rahbar hamda tarbiyachi-yo‘riqchi shtatlari joriy qilinadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan va birlamchi vazifalardan sanalgan 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash vazifasini sidqidildan bajarish orqali ham ko‘p yutuqlarga erishamiz. Bu bilan, avvalo, bog‘cha ta’limisiz maktabga borishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ayni natijaga yuz foiz erishish eng birlamchi maqsad sifatida oldimizga qo‘yilyapti. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlariga bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etishga ruxsat berilishi bu borada ayni muddao. 2027-2028-o‘quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida ta’lim-tarbiya olgan bolalarga davlat namunasidagi elektron sertifikat berilishi, mazkur ma’lumotlar umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomada qayd etilishi tizim tarixida bo‘lmagan yondashuv.

Farmonda belgilangan vazifalarning har biri aniq maqsadga, natijadorlikka asoslangan. Ularni to‘laqonli, sidqidildan ijro etadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi ishlarimiz yanada jadallashadi.

Inson qadri uchun

XAVFSIZ MIGRATSIYA

UNGA ERISHISH YO‘LIDA ALOHIDA MARKAZ ISH BOSHLADI

O‘tgan yili yurtimizda Migrantlar resurs markazi ochilgan va asosiy faoliyati qonuniy migratsiya haqida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan edi. Shuningdek, yangi markaz aniq va ishonchli ma’lumot berish orqali xavfsiz migratsiyani targ‘ib qilishi, xavfli va tartibsiz migratsiya bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xabardorlikni ta’minlashi, odam savdosi va boshqa tashvishli holatlarning oldini olishga ko‘maklashishi, vatanga qaytgan migrantlarga reintegratsiya (moslashuv) jarayonida maslahat va yo‘naltirish xizmatlarini ko‘rsatishi hamda davlat idoralari va NNTlar salohiyatini oshirish orqali migratsiya boshqaruvini yaxshilashi ko‘zda tutilgan.

Markaz faoliyatini Yevropa Ittifoqi moliyalashtirgan. Xalqaro migratsiya siyosatini rivojlantirish markazi amalga oshirayotgan loyiha doirasida milliy hamkor tashkilotlar bilan ish yuritadi. Faoliyati doirasida markazda chet elda ishlashni rejalashtirayotgan fuqarolar, yurtga qaytib kelgan va qo‘llovga muhtoj migrantlar, shuningdek, ularning oila a’zolari, mahalliy hamjamiyatlar, NNTlar va davlat idoralari, migratsiya masalalariga qiziqqan yoshlar va talabalarga xizmat ko‘rsatiladi.

Birinchi navbatda, xorijga ketish oldi ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Ya’ni migrantga u borishni istayotgan davlatga oid ma’lumotlar taqdim etiladi va maslahat beriladi. Bu borada individual va guruhlar bilan ishlanadi. Shuningdek, aholiga ma’lumot tarqatishda broshyura, flayer va bukletlardan, xabardorlikni oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. Targ‘ibot va axborot kampaniyalarida hududlarda seminarlar va uchrashuvlar o‘tkaziladi. Bu borada bandlik bo‘limlari, oliy o‘quv yurtlari va mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlik qilinadi. Interaktiv uslublar (savol-javob, videolar, viktorinalar) orqali ishtirokchilar jalb etilib, faollik va salohiyat oshiriladi. Davlat xizmatchilari, NNT vakillari va ijtimoiy ishchilar uchun ham o‘quv seminarlari tashkil etiladi. Migratsiyani boshqarish va vatanga qaytganlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilg‘or tajribalar almashiladi.

Xo‘sh, migrantlar qanday qo‘llab-quvvatlanadi?

Qaytgan migrantlar uchun markaz faoliyati doirasida axborot va yo‘naltirish xizmatlari taqdim etiladi. Xususan, bandlikka ko‘maklashish, kasb-hunar va o‘quv kurslari, shuningdek, psixologik xizmatlar bo‘yicha tegishli muassasalarga murojaat qilish imkoniyati haqida ma’lumot beriladi. Shu bilan birga, axborot materiallari doirasida muvaffaqiyatli tajribalar bilan o‘rtoqlashiladi.

Qisqa muddatda respublika bo‘ylab o‘tkazilgan seminar va uchrashuvlar orqali aholining xavfsiz migratsiya masalalari bo‘yicha xabardorligi oshirildi. Bildirilgan fikr-mulohazalar markaz faoliyatiga qiziqish va ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ko‘plab individual maslahatlar Migrantlar resurs markazi ofisida taqdim etildi. Davlat idoralari va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlandi.

Markaz faoliyati doirasida ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjudligi qayd etilmoqda. Migratsiyaga oid huquqiy bazani muntazam yangilab borish zarurati, uzoq va chekka hududlarda aholiga yetib borish imkoni cheklangani, texnik qiyinchiliklar (internet, transport va boshqalar) shular jumlasidan. Ayni muammolarga yechim topib borish asnosida markaz kelgusida O‘zbekistonning barcha viloyatlari bo‘ylab qamrovini kengaytirishni ko‘zda tutadi. Onlayn videodars va raqamli materiallar ishlab chiqiladi. Mahalliy OAV va NNTlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, vatanga qaytgan fuqarolar uchun ma’lumotlar bazasini yaratish, mobil Migrantlar resurs markazi xizmatini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan.

Markaz faoliyati doirasida xalqaro hamkorlar va tegishli davlat idoralari bilan muntazam muloqot hamda hamkorlik olib borilmoqda. Uchrashuvlar davomida mehnat migratsiyasi sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar, qaytgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, imkoniyatlar va amaliy tajribalar muhokama qilinadi. Bularning barchasi markaz faoliyatini muvofiqlashtirish va uni milliy ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilyapti.

Munojat RAHIMJONOVA,
jurnalist

14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uz_news yuz.uz_news

Boburning HARBIY JANG SAN’ATI

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Umarshayx Mirzodan qolgan, temuriylar an’anasiga asosan shakllangan harbiy tizim bor edi. Bu tizimning kuchi, qudrati va iqtidorining asosini chaqqon harakatlanuvchi, kerakli paytda manyovr qila olish salohiyatiga ega uncha katta bo‘lmagan otliq qo‘shin — cherik (armiya) tashkil etardi.

Umarshayx Mirzo to‘satdan vafot etganda taxt vorisi Boburning juda yosh bo‘lganini, yetarli tajribaga ega emasligini, qo‘shin va hukumat ma’muriyati o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonib ulgurmaganini hisobga olsak, o‘sha vaqtda shahzoda uchun muayyan tahlika va tahdidlar yuzaga kelgani tabiiy hol, albatta. Chunki shu paytda Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmudxon va Abu Bakr Do‘lot Koshg‘ariy uch tarafdan podsholik hududiga bostirib kirishni rejalashtirayotgan edi. Boburning bek atkasi Hasan Ya’qubning Sulton Mahmudxon tomoniga o‘tishi, ya’ni xoinligi, sotqinligi ham tahlika va xatarni oshirgandi.

Armiya oliy hukmdorga bo‘ysunsa-da, viloyat hokim va beklari, harbiy qo‘mondonlar, qurol-asloha, o‘q-dori, oziq-ovqat, urush ulovlari, axborot yig‘ish, yetkazish bilan shug‘ullanuvchi amirlar, harbiy garnizonlar joylashgan shahar, qal’a, dorug‘a, kutvol, shixnalardan iborat tashqi beklar, amir-ul-umarolar amalda bevosita bek atkaga bo‘ysunardi.

Harbiy tizim tarkibining quyi bo‘g‘inlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, viloyat beklari, shahar, qal’a harbiy garnizonlari beklari, harbiy-tashkiliy va ta’minot beklari ishonchli, sinovdan o‘tgan, tajribali, favqulodda vaziyatlarda ham mustaqil qaror qabul qila oladigan maqom sohiblari bo‘lgan.

Armiyaga askarlarni yollash muayyan maosh, yer-suv mulklarni xizmatiga qarab faoliyat davri uchun ajratib berishdan iborat ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar asosida tashkil etilgan. Professor S.Jalilov Mirzo Bobur armiyasini tuzish tamoyillarini nazarda tutib, “Qo‘shin o‘sha davr tartibiga binoan yollangan bo‘lardi”, deb ko‘rsatadi.

Mirzo Boburning armiyasiga xizmatga viloyat, ulus, shahar, tuman beklari, amir-ul-umarolar, tarxon, sarxanglar, ayniqsa, ixtiyor beklar, sohib ixtiyor beklar, bek atkalar, hatto dorug‘a, kutvol, shixna, muhassillar o‘z bek va atkalari bilan kirar edilar. Bek atkalar, sohib ixtiyor beklar tasarrufida, Mirzo Boburning o‘zi aniq ko‘rsatib o‘tganidek, 10 mingdan 30-40 mingtagacha askar, o‘g‘lon, bahodur, navkar, yasovullari bo‘lgan. G‘arbiy Ovrupa davlatlarida bo‘lgani kabi ularning har biri bilan shaxsan hukmdorning o‘zi, ya’ni Bobur alohida-alohida shartnoma tuzmas edi. Faqat ulug‘ amirlar Bobur xizmatiga qo‘shini bilan o‘tgach, ahdlashish bay’at qilinib, unga katta yer-suv, viloyat, shahar, tuman berilar va qo‘shin asosan ana shu berilgan mulklarga har bir navkarini oilasi bilan joylashtirardi. Agar askar oilasi bilan ilgaridan shu joyda yashab kelayotgan bo‘lsa, u bek, amir ta’minotiga o‘tgan hisoblanardi. “Yigit (askar) qo‘shinga safarbar qilindimi, uning oilasining ta’minoti ham davlat tomonida”, deb yozadi S.Jalilov. Shuningdek, navkarlarga, amirlar va qo‘mondonlarga urush o‘ljasi — g‘animatdan o‘z ulushlarini olish tartibi ham belgilab qo‘yilgandi.

Bobur davlati harbiy tizimining ijtimoiy tarkibi qadimgi turkiy-mo‘g‘uliy yaso-yusun, to‘ra-tuzuk qonunchiligi va an’anasiga ko‘ra, asosan turkiy va mo‘g‘uliy urug‘-qavmlardan tashkil topgan. Harbiy qo‘mondonlar o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi, sarhang, amir, amir-ul-umarolardan iborat bo‘lgan. Harbiy qo‘mondonlarning mansab, unvonlarga tayinlanishi esa, asosan, ularning o‘z urug‘-qabilasidagi o‘rni, nufuzi, qo‘shini soni, qurol-aslahalari darajasiga qarab belgilangan. Boshqa xalqlar harbiy xizmatga deyarli jalb etilmagan. Ular ot-ulov, yem-xashak, oziq-ovqat, qurol-aslaha ta’minoti va boshqa tashkiliy ishlarda, urush ketayotgan mahalda asosan, asirlar, qullar bilan bir qatorda hasharga jalb etilgan.

Boburda muntazam va maxsus tayyorgarlik ko‘rgan askarlar bo‘lmagan. Ammo uning qo‘lida otasi davrida shakllangan harbiy qo‘mondonlik, harbiy shtab (ichki va tashqi beklar chorgasi), oliy umumdavlat chorgasi bo‘lgan. Shu bilan birga, qal’alar, shaharlar va nihoyat, harbiy garnizonlarda Bobur va uning amir-ul-umarolari tasarrufidagi o‘n mingdan o‘ttiz, qirq mingtagacha muntazam, yollangan otliq qo‘shin har onda harbiy xizmatni bajarishga shay turgan. Umarshayx Mirzoning bevaqt vafotidan so‘ng Farg‘ona uch tomondan bostirib kelayotgan dushmanlar va saroy ichidagi Hasan Ya’qub fitnasi tufayli jiddiy xavf ostida qoldi. Shunday og‘ir vaziyatda oliy kengash va amirlar ko‘rsatgan qat’iylik hamda uyushqoqlik sababli tashqi hujumlar va siyosiy inqiroz samarali bartaraf etildi.

Aynan muntazam qo‘shin, uning bosh harbiy shtablari vazifalarini bajargan ichki beklar chorgasi va tashqi beklar chorgasi hamda oliy davlat chorgasi armiya tuzish, harbiy tizimni yaratish, uning siyosiy-huquqiy, qonunchilik asoslarini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan. Armiyani jangga to‘liq hozirlash, qurollantirish, harbiy taktikani belgilash hamda dushman hududlari va qal’alarini egallash rejalarini ishlab chiqish eng muhim masalalardan biri edi.

Shu bilan birga, razvedka ma’lumotlarini yig‘ish, buyruqlarni tezkor yetkazish va ularning ijrosini qat’iy nazorat qilish tizimi yo‘lga qo‘yilishi talab etilgan.

Qo‘shin va xalqning ruhiy holati, sadoqati hamda ishonchini o‘rganishni o‘z ichiga olgan ushbu murakkab vazifalar ichki, tashqi va oliy davlat chorgalari zimmasiga yuklangan.

Albatta, Boburning Farg‘ona va Samarqanddagi davlat tizimi, idora hamda boshqaruv usullari bilan Kobul va Hindistondagi davlat tizimi, idora va boshqaruv usullari o‘rtasida o‘ziga xos farqlar bo‘lganidek, harbiy tizim boshqaruvi usullarida ham katta o‘zgarishlar, farqlar mavjud edi.

Shunga qaramay, Farg‘ona va Samarqandda ham, keyinchalik Afg‘oniston va Hindistonda ham Boburning Sharqqa xos jang olib borish strategiya va taktikasi deyarli mohiyatan o‘zgarmagan, faqat ko‘lamiga ko‘ra o‘zgarishga uchragan, xolos.

Bobur armiyasida markaziy qo‘shinning o‘ng tomonida borongir, so‘l tomonida javongir armiya korpuslari, ana shu uch qo‘shin korpuslari oralig‘ida, ulardan sal ilgarida, o‘ng va chap irovul-rezerv qo‘shin korpuslari harakatlangan. Urushning borishidagi har bir aniq vaziyatda kuchlar nisbatiga qarab markaziy qo‘shin yoki borongir va javongir qo‘shini bilan hamkorlikda jang qilish o‘ng va chap irovul qo‘shinlarining asosiy vazifasi hisoblangan. Agar o‘ng qo‘l qo‘shin, ya’ni borongir zaiflashsa, o‘ng qo‘l irovul unga yordamga tashlangan. Bordiyu dushman armiyasi markazga yorib kirsa yoki borongir va javongiri yashin tezligida ikki yondan aylanib o‘tib, orqadagi chigdovulni parokanda qilib, markazga orqa tomondan hujum qilsa, o‘ng va chap qo‘l irovul korpuslari birgalikda markaziy qo‘shinni himoya qilishga tashlangan.

Mirzo Bobur temuriy mirzolarni umummilliy dushmanga qarshi birlashishga, ittifoq tuzishga qanchalik chaqirmasin, bunday birlik, ittifoq va hamkorlik imkoniyatlariga ega bo‘lmadi. Eng achinarlisi, hali o‘zi juda yosh, yetarli jangovar malaka va tajribaga ega bo‘lmagan holda puxta tayyorgarlik ko‘rmay, uncha katta bo‘lmagan qo‘shini bilan jangga kirgan. Shunda ham ochiq jangda yengilmagan, balki g‘alaba qilgach, ta’minotning yetishmasligi, madad kuchlari kelmasligi oqibatida hududni boy bergan. Chunki u bobokaloni Amir Temur kabi halol, jasur va mard jangchi edi.

1511-yilda oxirgi bora Samarqandni qo‘lga kiritib, taxtga o‘tirganda ham uning ittifoqchisi o‘z tug‘ishganlari bo‘lmish temuriy mirzolar emas, balki Ismoil Safaviyning Najmi Soniy boshchiligidagi qo‘shini edi. Eroniylar bilan tuzilgan bu zo‘raki ittifoq, harbiy hamkorlik Mirzo Boburga nafaqat qimmatga tushgan, balki umuman vatanidan judo bo‘lishiga olib kelgan...

U Kobulda taxtga o‘tirib, Shimoliy Hindistonda temuriy mirzolar saltanatidan tubdan farq qiladigan yangi saltanat, yangi sivilizatsiya, armiyaga asos soldi. Lekin jang, urush olib borish strategiyasi va taktikasi deyarli o‘zgarmadi.

Bobur ilgari, asosan, quruqlikda harakatlanuvchi otliq armiya va qisman piyoda — xasharga ega bo‘lgan bo‘lsa, Hindiston fatuxotlarida armiyaning ijtimoiy-etnik, diniy konfessional tarkibi tubdan o‘zgardi. Askarlar soni, qurol-aslaha turlari va miqdori ko‘payibgina qolmay, sifat jihatidan yangi, zamonaviy qurol-aslaha — to‘p-zambarak, miltiq, artilleriya hamda daryo harbiy kemachiligiga ega bo‘ldi.

Armiya rahbariyati, qo‘mondonlik, asosan, turkiy mo‘g‘ullardan iborat bo‘lib, oddiy askarlar, o‘rta zobitlar ichida afg‘onlar, fors-tojiklar, hind musulmonlari ko‘pchilikni tashkil qila boshladi.

Bobur armiyasi ham quruqlikda, ham daryo suv havzalarida, dengizlarda o‘zaro uyg‘un harakatlanardi. Buning uchun zarur bo‘lgan quruqlikdagi ot-ulov, daryo-dengizda harbiy kemachiligi, aloqa va kommunikatsiyalari bor edi. Bu juda katta tezlikda, chapdastlik bilan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan bir butun tizim edi.

Armiyasi tarkibi va sifat darajasidagi o‘zgarishlar Boburning siyosiy, harbiy, mafkuraviy tafakkuri va dunyoqarashida qurolsozlik sohasidagi texnik kashfiyotlarni, yangilik hamda innovatsiyalarni o‘z davriga nisbatan tez, to‘g‘ri qabul qilish, samaradorligini yetarli baholay olish, aql-zakovati, salohiyati va kuchli irodasi bilan izohlash mumkin.

Bobur harbiy strategiya va taktika san’atida o‘z yo‘liga ega bo‘lsa-da, ko‘proq bobosi Amir Temur an’anasiga rioya qilgan.

To‘kal Barlosning 1000 kishilik qo‘shinidan 60 ta askari bilan mag‘lub bo‘lmagani haqida Sohibqiron Amir Temur bunday yozgan edi: “Amir Husaynga hamma kuchlarimizni to‘plashni buyurdim: bizning barcha kuchlarimiz atigi oltmish askardan iborat ekan. Bu kichik guruhni men besh qismga bo‘ldim va har bir qismga boshliq tayinladim: amir Xusayn, amir Tog‘a Bug‘ay Barlos, amir Sayfuddin Nikudariy, amir Doimchi va amir Sadrlar bu qismlarni boshqardi. Men o‘zim tanlagan bahodirlarim bilan tepa ustida turdim... Jang tugadi. Ikki tarafdan ham talafot katta edi: bizda atigi yetti kishigina tirik qolgan bo‘lsa, To‘kal Bahodirda ... ellikta tirik qolgan edi”.

Harbiy jang taktikasi san’atining Amir Temur va Mirzo Bobur namoyon qilgan bu usullari katta armiya yengilib, parokanda bo‘lib ketganda yoki oz qo‘shin bilan jang qilishga to‘g‘ri kelganda qo‘llanilgan. Qo‘mondon o‘zini yo‘qotmay, yuksak harbiy taktika san’atini namoyish etib, chapdastlik bilan armiyaning qolgan oz qismini qochib ketish yoki nobud bo‘lishdan saqlab, tezkorlik bilan qaytadan saflash, tartib-intizom, strategiya va taktika maqsad, vazifalariga bo‘ysungan holda jangni g‘alabagacha olib bora olgan.

1526-yilning aprel oyida Zahiriddin Muhammad Bobur va Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy o‘rtasida bo‘lgan Panipat jangini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu jang o‘z shiddati bilan tarixda qoldi va Boburning usta sarkarda ekanini dunyoga ko‘rsatib berdi. Ibrohim Lo‘diy qo‘shinining soni 100 ming askar va jangovar fillardan iborat edi, Bobur Mirzo qo‘shini esa 12 ming kishidan tashkil topgandi.

Ibrohim Lo‘diy katta qo‘shini bilan hujumga o‘tdi, ammo Bobur Mirzoning o‘ta nozik taktikalari jang natijasini o‘zgartirdi. U to‘lg‘ama usulini qo‘llab, dushman orqasiga o‘tib, unga kuchli zarbalar berdi. Shuningdek, 700 ta aravani ho‘kizlarning xom terisidan eshilgan arqonlar bilan bog‘lab, ularni tufakandozlar va zambaraklar bilan qurollantirdi.

Tufakandozlar va zambaraklar fillar uchun tahdid bo‘lib, ularning vahimasiga sabab bo‘ldi. Fillar orqaga qochib, Lo‘diy qo‘shini katta yo‘qotishlarga uchradi. Ibrohim Lo‘diyning o‘zi ham jangda halok bo‘ldi va Bobur Dehli hamda Agrani zabt etdi.

Bu jang Bobur nafaqat shoir va shoh, balki bobosi Amir Temur kabi buyuk sarkarda bo‘lganini ko‘rsatadi.

Karim NORMATOV,
tarix fanlari doktori, professor

Mulohaza

KUTUBXONALARDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

XIZMAT KO‘RSATISH ANIQLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRADI

Sun’iy intellekt texnologiyalari kutubxonachilik sohasida nafaqat texnik jarayonlarni avtomatlashtirish, balki tarixiy fondlarni ilmiy tahlil qilish, raqamlashtirish, tavsiflash hamda intellektual qidiruv qamrovini kengaytirish borasida ham yangi ufqlarni ochib bermoqda.

Kutubxonachilik amaliyotida sun’iy intellekt, asosan, avtomatik kataloglashtirish va metama’lumotlarni shakllantirish, matnlarni tanib olish, semantik qidiruv hamda tavsiya tizimlari, shuningdek, fondlardan foydalanish holatini tahlil qilish yo‘nalishlarida qo‘llanilmoqda.

Tarixiy fondlar bilan ishlash jarayonida sun’iy intellekt uslublari klassik bibliografik yondashuvni to‘ldiruvchi innovatsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa kutubxonachilikda fanlararo integratsiyani kuchaytirib, tarix, manbashunoslik, axborot texnologiyalari va raqamli gumanitar fanlar o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatilishiga xizmat qiladi.

Dunyo kutubxonalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, kutubxonachilik faoliyatini modernizatsiyalashning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Xususan, AQSH sun’iy intellekt sohasida innovatsiyalarni qo‘llash va investitsiyalarni jalb qilish borasida yetakchi davlatlardan biridir. 2009-yildan boshlab AQSHning ayrim jamoat kutubxonalarida sun’iy intellektga asoslangan chat-botlardan virtual yordamchi sifatida foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Misol uchun, Ogayo shtatidagi Mentor jamoat kutubxonasida joriy etilgan “Emma” nomli virtual yordamchi foydalanuvchilarga axborot xizmatlari ko‘rsatishda samarali vosita bo‘lmoqda. Shuningdek, AQSH Kongressi kutubxonasining “Newspaper Navigator” loyihasi doirasida sun’iy intellekt tizimlari qisqa muddat ichida millionlab gazeta sahifalarini mustaqil ravishda qayta ishlash va tasniflash salohiyatini namoyon etdi.

Buyuk Britaniyada ham oliy ta’lim va kutubxonachilik sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami kengayib bormoqda. Vestminster universitetida talabalarni raqamli resurslardan foydalanishda qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellektga asoslangan “Libby” nomli yordamchi joriy etilgan bo‘lib, u axborot qidiruvi va maslahat xizmatlarini avtomatlashtirilgan tarzda taqdim etadi.

Darhaqiqat, sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish tarixiy fondlar bilan ishlash samaradorligini keskin oshiradi. Intellektual qidiruv tizimlari, avtomatik indeksatsiya va semantik tahlil mexanizmlari katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash imkonini beradi. Natijada ilmiy izlanishlar uchun tizimli, yuqori aniqlikdagi va tezkor axborot muhiti shakllanadi. Bu holat tarixiy manbalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirib, ilmiy tadqiqotlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi kutubxonachi kasbining funksional rolini ham sezilarli darajada o‘zgartiradi. Endilikda kutubxonachi nafaqat fondlarni saqlovchi va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis, balki axborot menejeri, ma’lumotlar tahlilchisi va ilmiy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa kutubxonachidan raqamli kompetensiyalar, tahliliy tafakkur va fanlararo bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Kelgusida O‘zbekiston kutubxonalarida sun’iy intellektga asoslangan raqamli platformalarni rivojlantirish milliy tarixiy-madaniy merosni saqlash va ommalashtirishning yangi mexanizmlarini yaratadi. Bunday platformalar tarixiy fondlarni global ilmiy makonga integratsiya qilish, xalqaro tadqiqotchilar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda milliy manbalarning jahon miqyosida e’tirof etilishiga imkon beradi. Shu tariqa sun’iy intellekt texnologiyalari kutubxonachilik faoliyatini modernizatsiya qilish bilan birga tarix fani rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shadi.

Ayni paytda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalarini chuqurroq integratsiya qilish masalasi dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi OCR va HTR texnologiyalarni joriy etish qo‘lyozma yoki bosma matnlarni tezkor va aniq raqamlashtirish, ularni ilmiy muomalaga keng jalb etish imkonini beradi. Nashrlarni raqamlashtirish jarayonida matnlarni tahrirlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan zamonaviy tizimlar joriy etilgan bo‘lib, ularda sun’iy intellekt yordamida matnlarni yuqori aniqlikda tanib olish, avtomatik tilni aniqlash, metama’lumotlarni shakllantirish hamda matn bo‘yicha tezkor qidiruvni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa raqamlashtirilayotgan resurslar sifatini oshirish va ulardan ilmiy maqsadlarda samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Fondlarni tizimlashtirish va tasniflash jarayonlariga sun’iy intellekt vositalari tatbiq etilishi natijasida mutaxassislarning kitoblarni tasniflashga sarflaydigan vaqti bir necha barobar qisqarib, xizmat ko‘rsatish jarayoni aniqligi va samaradorligi oshdi. Mazkur yondashuv kutubxonachilik faoliyatida inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytirish va standartlashtirilgan bibliografik tavsiflarni shakllantirish imkonini bermoqda.

Foydalanuvchilar uchun elektron kataloglarda sun’iy intellekt yordamida ovozli so‘rovlarni matnga aylantirish, shuningdek, moslashtirilgan tavsiyalarni taqdim etish funksiyalari ishga tushirilgan. Ushbu imkoniyatlar ilmiy ishlar va dissertatsiyalar elektron bazalariga ham tatbiq etilib, foydalanuvchilarning axborot so‘rovlariga javob berish, ularni tahlil qilish va saralash jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Kutubxona faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning yana bir muhim afzalligi mualliflar, noshirlar va kutubxonalar o‘rtasidagi axborot almashinuvi hamda yakuniy iste’molchi bilan o‘zaro aloqalar sifati yaxshilanishida namoyon bo‘ladi.

Axborot resurslariga bo‘lgan real ehtiyojni tahlil qilish imkoniyati tufayli nashriyot va savdo tarmoqlarida talab qilinmaydigan adabiyotlar hajmi qisqarib, kutubxona fondlari, asosan, faol foydalaniladigan manbalar hisobiga shakllantiriladi. Bu jarayon kitobxonlarning mutolaaga qiziqishini oshirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda bilimga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirishga xizmat qiladi. Pirovardida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish milliy o‘qish madaniyatini yuksaltirish va mamlakatni yuqori kitobxonlik darajasiga ega davlatlar qatoriga olib chiqish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Umida TESHABOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:30